



<b>MUNDARIJA</b>		
<b>KIRISH .....</b>		<b>3</b>
<b>I BOB.</b>	<b>BANK AMALIYOTIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING AHAMIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>6</b>
1.1.	Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning ahamiyati va iqtisodiy mohiyati.....	<b>6</b>
1.2.	Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish bo'yicha xalqaro standartlar va ularning tamoyillari .....	<b>14</b>
<b>II BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI TOMONIDAN TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH AMALIYOTINING TAHLILI.....</b>	<b>32</b>
2.1.	Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy me'yorlar orqali tartibga solish amaliyoti.....	<b>32</b>
2.2.	Tijorat banklari faoliyatini monetar instrumentlar orqali tartibga solish amaliyoti.....	<b>41</b>
<b>III BOB.</b>	<b>TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....</b>	<b>61</b>
<b>XULOSA .....</b>		<b>68</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>		<b>71</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012 yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi.

Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir.

2010 yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo'lgan bo'lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga etdi.\*

Mamlakatimizda moliya, valuta-kredit sohasida mustaqil davlatimizning olib borgan oqilona siyosati tufayli jamiyatimiz miqyosida iqtisodiy barqarorlik saqlab qolindi.

Har qanday davlat iqtisodiyoti tayanadigan asosiy ustunlardan biri - barqaror bank tizimi hisoblanadi.

Lekin bank tizimida ayrim kamchiliklar ham mavjud. Rivojlanayotgan o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish tizimining samaradorligini oshirish borasida bir qator jiddiy muammolarning mavjudligi ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, Respublikamizning bir qator yirik va o'rta tijorat banklari kredit qo'yilmalarining umumiy hajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Banklarning barqarorligini ta'minlash hamda ularning ish samaradorligini saqlab turishda bank nazorati muhim o'rin tutadi.

Banklarni tartibga solishdan ko'zlangan bosh maqsad bank tizimi barqarorligini saqlash, omonatchilar hamda kreditorlar manfaatlari

---

\* I.Karimov Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. "O'zbekiston". Toshkent, 2013. 5 b..

himoyalani ta'minlash, banklarning moliyaviy muammolarini oldindan aniqlash va ularni oldini olish va hokazolardan iborat.

Milliy bank tizimining barqarorligini ta'minlash, aholi va korxonalariga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining sifatini oshirish tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning samarali, mukammal tizimini shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizda Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimida sezilarli muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishning zarurligi mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimini o'rganish hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari** sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning uslubiy-nazariy asoslarini o'rganish;

- mamlakatimiz Markaziy banki tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning amaldagi holatini tahlil qilish;

- xalqaro Bazil qo'mitasining 2013 yilning boshida kuchga kiradigan yangi talablarini o'rganish va ulardan O'zbekiston bank nazoratini takomillashtirishda foydalanish yuzasidan xulosalarni shakllantirish;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirish borasidagi asosiy muammolarni aniqlash va asoslab berish;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekt**i bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Respublikamizning tijorat banklari hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** bo'lib, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimini faoliyati hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar kiritilgan. Bu ma'lumotlardan respublika bank tizimini boshqarishni takomillashtirish dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek mamlakatimizda bank tizimiga oid o'quv darsliklarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi kirish qismi, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan hamda ishning maqsadi, vazifalari o'z aksini topgan.

Birinchi bobda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning ahamiyati va iqtisodiy mohiyati shuningdek, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish bo'yicha xalqaro standartlar va ularning tamoyillari haqida so'z yuritilgan.

Ikkinchi bobda mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy me'yorlar va monetar instrumentlar orqali tartibga solish amaliyoti tahlil qilingan.

Uchinchi bobda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish yo'llari bayon qilingan. Shuningdek, mavjud muammolar yuzasidan xulosa va takliflar bildirilgan.

# **I BOB. BANK AMALIYOTIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING AHAMIYATI VA NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning ahamiyati va iqtisodiy mohiyati**

Mamlakatda tijorat banklarining qoniqarli faoliyat ko'rsatmasligi, bank tizimi holatining yomonlashuvi nafaqat ushbu davlatda, balki uning chegaralaridan tashqarida ham moliyaviy barqarorlik uchun yaqqol xavfni yuzaga keltiradi. Buni hozirgi umumjahon globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va uning hayotni hamma jihatlarini qamrab olayotgan bir paytda yaqqol sezish mumkin. Shu sababli, hozirgi paytda bank va moliyaviy tizimlarining barqarorligiga erishish va mustahkamlash muammosi katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, Markaziy (emissiya) bank hamda ko'p tarmoqli tijorat banklarni o'z ichiga olgan 2 pog'onali bank tizimining samarali faoliyatini yo'lga qo'ymasdan, har qanday davlat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash va uni yuksaltirishga erishish mumkin emas.

Mazkur ikki pog'onali bank tizimining birinchi pog'onasida mamlakat Markaziy (Milliy) banki o'rin olib, u milliy valutaning barqarorligini ta'minlash, emissiya faoliyatini amalga oshirish, mamlakat pul muomalasi va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, Markaziy bank davlatning boshqa mas'ul organlari bilan birgalikda mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, bank va moliya tizimi mustahkamligini ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirib boradi.

Ikkinchi pog'onada tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari o'rin egallaydilar. Kredit muassasalari o'z faoliyatida avvalambor, tijorat asosida jismoniy va yuridik shaxslar, mijozlarga xizmat ko'rsatish, ulardan omonatlar

qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan o'z tavakkali hisobiga kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish hamda to'lovlarni amalga oshirish kabi faoliyatni amalga oshiradilar.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdan asosiy maqsad bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilish, bank kreditlari qaytmasligini va zarar ko'rishini oldini olishdir. Chunki, ssuda kapitallari, shu jumladan bank kreditlari holati va istiqboli milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, yuqori darajadagi bandlik, barqaror baholarni ta'minlash har bir davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga mamlakat tomonidan har tomonlama puxta o'ylangan iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish natijasida erishish mumkin. Pul – kredit siyosati, baho siyosati, budjet siyosati, muvozanatlashgan to'lov balansiga erishish, ish haqi va bandlik siyosati makroiqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Pul – kredit siyosati barcha davlatlarda Markaziy bank (ko'pgina davlatlarda u Milliy bank, AQSHda esa Federal rezerv tizimi deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Tijorat banklar faoliyatini tartibga solish va bank faoliyati ustidan nazorat qilish tushunchalari qisman o'xshash ko'rinsada, bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar bo'lib, ular o'rtasida bir qator farqlar mavjud.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish – bu vakolatli davlat organi tomonidan qonunchilikka asosan bank ishi yuritish tartibi va uslublari yuzasidan aniq qoida va yo'riqnomalarni shakllantirish va ishlab chiqish tushuniladi. Mazkur qoida va yo'riqnomalar barcha tijorat banklari uchun majburiy hisoblanadi.

Banklar faoliyati ustidan nazorat alohida banklar ishonchligi va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Nazorat deganda tijorat

bank o'z faoliyatini yo'riqnoma va qonunchilikka asosan yuritishini vakolatli davlat organi tomonidan uzluksiz nazorat qilinishi tushuniladi.\*

O'tgan asrning oxirida AQSH va boshqa anglo-sakson bank tizimiga ega mamlakatlarda yuz bergan bank inqirozlari asosan bank tizimining ixtisoslashganligi, banklarning ma'lum bir sohaga to'la qaram bo'lib qolishi, sohadagi o'zgarishlarga nisbatan o'ta ta'sirchan ahvolga tushishi hisoblanadi. Bir qator rivojlangan davlatlar mazkur kamchiliklar hamda nemis bank tizimi yutuqlarini hisobga olgan holda, o'z bank tizimlarini universallashtirishga e'tiborni oshirganligini xulosa qilish mumkin.

AQSHda bank faoliyatini tartibga solish mexanizmining vujudga kelishi hamda uning rivojlanish jarayonlari 1864 yilda qabul qilingan "Milliy bank akti to'g'risida"gi qonun bilan bog'liqdir. Ushbu qonunga asosan mamlakatning milliy valutasini dollar joriy etildi va Milliy bankka banknotalar emissiya qilish huquqi berildi.† Bundan tashqari, mazkur qonunga asosan mamlakatda pul muomalasini tartibga solish va Milliy bank uchun pul rezervlarini ta'minlash maqsadida Kongress tomonidan "Pul muomalasi bo'yicha Milliy komissiya" maxsus xizmati tashkil etildi. Mazkur Komissiya 1907 yilda olib borgan chuqur izlanishlari asosida, AQSHdagi banklarning keng miqyosdagi bankrotligini oldini olish maqsadida, maxsus moliyaviy institut shakllantirish lozimligi to'g'risida xulosaga keldi. Shuni ta'kidlash kerakki, AQSHda 1913 yilga qadar Markaziy bank yoki uni vazifalarini bajaruvchi davlat organi faoliyat ko'rsatmagan.

Shundan so'ng uzoq davr davomidagi debatlardan so'ng, AQSH Kongressi 1913 yilda bank faoliyatini tartibga solishning huquqiy asosi "Federal rezerv tizimi to'g'risida" qonun qabul qildi va Federal Rezerv Tizimi tashkil etildi. Buning natijasida, Federal Rezerv Tizimi banklari tijorat banklar likvidligiga ta'sir etish, pul massasini tartibga solishning moslashuvchan tizimini, majburiy zahiralar talablarini joriy etish va kreditor vazifasini bajarish imkonini berdi. Bundan tashqari, Federal Rezerv Tizimi

---

\* Василюшен Э.Н. Регулирование деятельности коммерческого банка. – М.: Финстатинформ, 1995. – с. 27.

† Антонов Г.М., Былинкина В.С. и др. Банковский портфель-2. – М.: Соминтэк, 1994. – с. 405.



foiz stavkalari miqdorini belgilash, ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish va tijorat banklari rezervlarini nazorat qilish kabi vazifalarni ham amalga oshira boshladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, AQSH bank tizimining tarixiy rivojlanishi tijorat banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish jarayonining Federal va shtatlar darajasida shakllanishiga sabab bo'lgan degan xulosani keltirib chiqaradi. Xulosa qilib aytganda, AQSHda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish 2 ta tamoyilga asoslanadi:

- yuqori riskli bank operatsiyalari bo'yicha qonuniy chegaralar o'rnatish orqali kredit institutlari barqarorligini ta'minlash va ularning bankrot bo'lishini oldini olish;

- sarmoyalarning kamchilik banklar qo'lida to'planishini cheklash va pul bozorini monopol tarzda nazorat qilinishiga yo'l qo'ymaslik uchun banklar bo'limlarini ochish bo'yicha shtat me'yorida chegaralar belgilash.\*

Germaniya bank tizimi AQSH bank tizimidan farqli ravishda 2-Jahon urushidan keyin juda tez rivojlandi. G'arbiy Germaniyadagi kredit institutlari va bank nazorati organlari o'rtasidagi munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan chegaralashga emas, balki davlat bilan katta banklar o'rtasidagi "jentelmen kelishuvlari"ga asoslangan edi.

Germaniyada banklar faoliyatini tartibga solishning huquqiy asosi bo'lib, "Germaniya Federativ Respublikasi banklari to'g'risida" va "Nemis Federativ banki to'g'risida", shuningdek 1983 yil 13 iyulda Yevropa Hamjamiyati Kengashining tavsiyalariga asosan 1985 yil 1 yanvardan kuchga kirgan "1961 yilda qabul qilingan "Bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" qonunlar hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada esa XX asrning oxiriga qadar tijorat banklar faoliyatini nazorat qilish to'g'risida maxsus qonun mavjud bo'lmaganligi sababli kredit muassasalari ustidan yashirin va norasmiy nazorat amalga oshirib kelingan edi. Yaqin yillarga qadar Buyuk Britaniya banklarining faoliyati davlat

---

\* Жуков Е.Ф. Банки и банковские операции. – М.: Банки и биржи. Юнити, 1997. – с. 83.

aralashuvi va qonuniy tartibga solinishdan ozod edi. Banklar faoliyatini tartibga solish Angliyada qabul qilingan “Aksioner kompaniyalari to’g’risida”gi qonun doirasida amalga oshirilar edi.

XX asrning 70-yillari oxiriga kelib Angliyada kredit institutlari ustidan nazorat bir muncha kuchaytirildi. 1979 yilda qabul qilingan qonunga asosan tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash majburiy amalga oshirila boshlandi, Depozitlarning umummilliy jamg’arma fondi tashkil etildi va Angliya bankiga nazorat organi maqomi berildi. Ammo 1979 yilda qabul qilingan bank faoliyatiga oid qonun tez o’zgaruvchi bank faoliyati sohasini aks ettira olmagan edi. Bundan tashqari, mazkur qonunda Angliya Banki tomonidan bank tizimini tartibga solish mexanizmi ko’zda tutilmagan edi. Shundan so’ng, 1987 yilda qabul qilingan “Bank faoliyati to’g’risida” (Banking Act) qonun bilan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qonuniylashtirildi. Shu yili 1 oktabrdan boshlab bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lgan barcha muassasalar tomonidan nazorat va tartibga soluvchi organlarga bankning minimal kapitali, likvidlik koeffitsientiga rioya etilishi, sof aktivlar va boshqa moliyaviy ko’rsatkichlar, “shubhali” qarzlarga qarshi rezervlarni shakllantirilishi, rahbar xodimlarning kvalifikatsiyasi, buxgalteriya hisobi va auditning ma’lum talablarga javob berishi va boshqa huquqiy talablarga mosligi to’g’risidagi ma’lumotlarni taqdim etilishi majburiy etib belgilandi.

Bundan tashqari, shu yili qabul qilingan qonun asosida tijorat banklari faoliyati auditorlik tekshiruvdan o’tkazila boshlandi. Angliya banki tomonidan qo’llanilayotgan nazorat tizimi har bir bank bo’yicha alohida xususiyatga egadir. O’tkazilgan nazorat natijasida banklarning moliyaviy holati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, banklarning rahbarlari bilan kelishilgan holda tadbirlar ishlab chiqiladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, 1982 yilga qadar Angliya banklarida inspeksion tekshiruvlarni o’tkazish amaliyoti mavjud bo’lmagan.

AQSHda va G'arbiy Yevropa davlatlarida bank nazorati, o'tgan 130 yildan ortiq muddat davomida har xil ko'rinishda shakllanib keldi va o'zida quyidagi sharoitlarni aks ettirdi:

- dastlab ushbu davlatlarda tijorat banklari o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun qonuniy va boshqa sharoitlarning yaratilmaganligi natijasida amalda makroiqtisodiy nomutanosiblikka sabab bo'ldi;

- buning natijasida, bank tizimini beqarorligi va banklarni inqirozga yuz tutishi butun bank tizimiga bo'lgan ishonchni yo'qolishiga olib kelishi o'z isbotini topa boshladi.

- nihoyat mazkur davlatlar o'z iqtisodiy siyosatini bank tizimi barqarorligini ta'minlashga yo'naltira boshladi.

AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya va boshqa rivojlangan davlatlarda bank faoliyati sohasidagi davlat siyosati iqtisodiyotdagi moliyaviy beqarorliklarga barham berish, yalpi pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish, banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash va bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik kabi maqsadlarni ko'rish mumkin.

Rossiya bank tizimi XIX asrning oxiri va XX asr davomida rivojlanib kelgan bo'lsada, bozor iqtisodiyoti sharoitida atigi bir necha yil davomida faoliyat yuritmoqda. Shuni hisobga olgan holda, Rossiya va MDH davlatlarida banklar faoliyatini tartibga solish tizimining huquqiy asoslarini xalqaro standartlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat banklar faoliyatini tartibga solishni quyidagi usullarda amalga oshiradi:

- tijorat banklari manfaatlarini amalga oshirish imkonini beruvchi qonunchilik va boshqa sharoitlarni yaratish;

- muomaladagi pul massasining umumiy hajmi va tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali tijorat banklarining iqtisodiyotga kredit sifatida yo'naltiradigan mablag'lariga pul-kredit siyosati vositasida ta'sir etish;

- banklarning to'lovga qobilligini ta'minlash uchun iqtisodiy me'yorlar belgilash va ularga rioya etilishi ustidan nazorat qilish.

Umuman, keng ma'noda bank nazorati bu hukumat tomonidan moliyaviy sektorni ishonchliligi, barqarorligini ta'minlashda ishlatiladigan tizimdir. Har qanday davlat bank nazorati tizimi oldida 2 ta vazifa turadi:

1. Barcha omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish.
2. Bank tizimini kafolatlash, iqtisodiy o'sishiga yordamlashish.

Dunyodagi barcha rivojlangan davlatlarda Markaziy bank tijorat banklar faoliyatini 2 xil usulda: 1) davlatning pul-kredit siyosatini yuritish; va 2) iqtisodiy me'yorlar asosida tartibga soladi va mamlakatning moliyaviy barqarorligi va makroiqtisodiy ko'rsatkichiga bevosita ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublika Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining balans likvidligini doimo ta'minlab borishi yoki ularning o'z oldilaridagi majburiyatlarini o'z muddatida amalga oshirishlariga erishish, omonatchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida tijorat banklari faoliyatini tartibga solib turish uchun iqtisodiy me'yorlar (normativlar) o'rnatildi.

Tijorat banklari uchun iqtisodiy normativlarni o'rnatilishi – bu, avvalo, Markaziy bank tomonidan samarali bank nazoratini olib borishga erishish, tijorat banklari faoliyatida vujudga keladigan muammolarni oldindan aniqlash va qolaversa, barqaror bank tizimini yaratishda eng muhim instrumentlardan biri bo'ldi.

O'tgan asr oxiriga kelib iqtisodchilar markaziy banklar tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatining bir qismi bo'lgan monetar siyosatni davlat umumiy moliyaviy siyosatining davomi ekanligi to'g'risida xulosaga kelishdi. Ushbu siyosatning maqsadi milliy daromadlarni oshirish va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga faol ta'sir etish hisoblanadi. G'arb davlatlaridagi keynsian qarashlarini yoqlovchi ko'pchilik iqtisodchilar monetar siyosatni pul tizimini faol boshqarish va qisqa muddatli makroiqtisodiy tartibga solish uchun yetarli deb hisoblashardi. Monetaristlar, jumladan amerikalik iqtisodchi Milton Fridmen davlatning faol monetar va

moliya siyosati, shuningdek davlat tomonidan banklar operativ faoliyatiga haddan ziyod aralashish iqtisodiy tizimda beqarorlikka sabab bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Ammo ushbu tanqidiy qarashlar keynsian qarashlarining amaliy tadbig'iga to'sqinlik qila olmadi.

Davlat markaziy banklar yordamida tijorat banklari faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar (bevosita - ma'muriy) yoki bilvosita tartibga soladi, ular likvidligini ta'minlaydi va bu orqali makroiqtisodiy samaradorlikka erishadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga ko'ra esa iqtisodiyotga davlat aralashuvining keskin darajada qisqartirish va uning huquqiy asoslarini yaratish moliyaviy munosabatlarni erkinlashtirish, barqaror pul-kredit tizimini rivojlanishiga imkoniyat tug'diradi.

Markaziy bankning tijorat banklarini ro'yxatga olish, litsenziyalash va ular faoliyatini tartibga solish, ya'ni bank nazorati borasidagi siyosat bank tizimining barqarorligini saqlash, bank tizimida haqiqiy raqobat muhitini yaratish va yangi moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan banklarning bozorga kirishini nazorat etish yo'llaridan biridir. Banklarni litsenziyalash jarayonini takomillashuvi avvalambor litsenziyalash standartlarini, ya'ni bank muassislarining moliyaviy ahvoli, bank rahbarlari malakasi va obro'siga qo'yiladigan talablarni oshirishdan iboratdir. Shuningdek, banklar tomonidan o'z kapitalini yetarliligini ta'minlanishi, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga rioya etilishi, iqtisodiyotning real sohasiga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari o'sishini va tavakkalchilikni oqilona diversifikatsiyalashni ta'minlanishi, kreditlar berish shartlarini, shuningdek, bank kredit portfelining holatini aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda nazorat qilinishi banklar faoliyatini tartibga solishning mohiyatini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, butun bank tizimini barqarorligini ta'minlash, alohida olingan bank uchun esa, u duch kelishi mumkin bo'lgan jiddiy muammolarni va inqirozlarni oldini olish yuzasidan eng to'g'ri yo'lni ko'rsatish, omonatchilar va kreditorlarning mablag'laridan foydalanayotgan

banklar tomonidan qay darajadagi riskli operatsiyalar bajarilayotganligini nazorat qilish va tartibga solish hamda bu orqali, oxir oqibatda, omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilish Markaziy bank tomonidan tijorat banklar faoliyatini tartibga solishning muhim iqtisodiy mohiyatini tashkil etadi.

## **1.2. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish bo'yicha xalqaro standartlar va ularning tamoyillari**

Bank faoliyatini tartibga solishda davlat tomonidan tijorat banklar faoliyati ustidan nazorat qilinishi va tartibga solinishi, ular faoliyatida muayyan cheklashlarni o'rnatilishi banklar iqtisodiy erkinligini cheklashga intilish, raqobatning rivojlanishiga xalaqit beradigan omil sifatida qaralishi mumkin. Ammo dunyodagi ko'pgina rivojlangan davlatlarda banklar, shuningdek boshqa moliya tashkilotlarining faoliyatlari turli darajada davlat tomonidan tartibga solinadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarda ham bank-moliya sektori jiddiy ravishda davlat tomonidan tartibga solinadi. Bu yerda, banklarni tartibga solish yuzasidan jahonda umumiy qabul qilingan tamoyillar va qoidalar har bir mamlakatda aniq vaziyat tahlilini hisobga olgan holda qo'llaniladi.

AQSHda bank nazorat ikki bo'g'inda olib boriladi:

1) Milliy banklar tizimi Federal Hukumatga, ya'ni Pul muomalasi nazoratchisiga bo'ysunadi;

2) Shtatlar banklari tizimi ayrim shtatlarga bo'ysunadi.

Federal darajada bank nazorati asosan 3 ta tashkilot: Pul muomalasi nazoratchisi, Federal rezerv tizimi (FRT) va 98 foiz banklar a'zo bo'lgan Sug'urta jamg'armalari Federal Korporatsiyasi (SJFK) tomonidan amalga oshiriladi. Pul muomalasi nazoratchisi Moliya vazirligining Xazina organi bo'lib, uning nazorat funksiyasiga quyidagilar kiradi:

- milliy banklarni tashkil etilishida ruhsatnoma berish;
- davriy nazorat va taftish tekshiruvlarini o'tkazish;

- bank bo'limlari ochilishi va qo'shilishini nazorat qilish.\*

Yuqorida keltirib o'tilgan organlardan tashqari AQSHda banklar faoliyati ustidan nazorat qiluvchi shtatlarning bank departamentlari mavjud bo'lib, ularning vazifasi bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun shtat banklariga ruhsatnomalar berish (charter), yo'riqnomalar ishlab chiqish, banklarda tekshiruvlarni o'tkazish va hokazolardan iborat.

AQSH Adliya vazirligi esa banklarning qo'shilishi va bank xoldinglarini tuzilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi. Bundan tashqari bank nazorati bo'yicha nodavlat nazorat organlari ham mavjuddir. Ular jumlasiga Amerika banklar assotsiatsiyasi, Mustaqil banklar assotsiatsiyasi, turli shaharlarning Kliring palatalari komiteti va boshqalar kiradi. Mazkur nodavlat nazorat organlarining vazifasi - mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha standartlar ishlab chiqish, bank operatsiyalarini amalga oshirishning texnik masalalarini hal etish, Kongress va matbuot bilan aloqalar olib borish kabilar hisoblanadi.

Germaniyada kredit institutlari ustidan nazorat Bank nazorati bo'yicha Federal boshqarma hamda Nemis Federal banki (Bundesbank) tomonidan amalga oshiriladi. Bank nazorati bo'yicha Federal boshqarmaning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- yangidan ochilayotgan banklar faoliyatiga litsenziyalar berish;
- kredit institutlari uchun majburiy rezerv talablarini belgilash;
- kredit va pul muomalasi sohasiga tegishli qonun va me'yoriy hujjatlarga amal qilinishini nazorat qilish;
- banklar faoliyatini rejadan tashqari tekshiruvdan o'tkazish;
- banklar rahbarlarini lavozimidan ozod etish va hokazo.

Mamlakatdagi barcha kredit institutlari Bank nazorati bo'yicha Federal boshqarmaga o'z faoliyatlaridagi barcha o'zgarishlar to'g'risida, shuningdek, oylik hamda yillik hisobotlarni taqdim etadilar. Banklar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Federal boshqarma Bundesbank bilan kelishilgan holda

---

\* Жуков Е.Ф. Банки и банковские операции. – М.: Банки и биржи. Юнити, 1997. – с. 83.

kredit institutlari faoliyati uchun majburiy iqtisodiy me'yorlar o'rnatib boradi. Ushbu o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga quyidagilar kiradi:

- tijorat banklari riskka tortilgan aktivlarining miqdori aksionerlik kapitalining 18 barobaridan ko'p bo'lmasligi lozim;

- har operatsiya kunining chet el valutasini bo'yicha yopilmagan qismi aksiyadorlik kapitalining 30 foizdan oshmasligi lozim;

- moliya fyuchers va opsiyonlari bo'yicha kunlik ochiq pozitsiya bank aksiyadorlik kapitali summasining 20 foizdan oshmasligi lozim;

- bank sarmoyasining 15% idan yuqori bo'lgan bir qarz oluvchiga berilgan "yirik" kreditlar to'g'risida ma'lumotlar zudlik bilan Bundesbankka taqdim etish, mazkur kreditlarning umumiy summasi bank sarmoyasining 8 barobaridan oshmasligi lozim.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda banklarni nazorat qilish organlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 3 xil yo'nalishni ko'rishimiz mumkin. Birinchi yo'nalish bank nazorati funksiyalarining faqat Markaziy bankda jamlanishini, ikkinchi yo'nalish nazorat funksiyalarining alohida davlat nazorat organlari tomonidan, uchinchi yo'nalish nazorat vazifalarini bir nechta organlar birgalikda amalga oshirishni ko'zda tutuvchi yo'nalish hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilganidek Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish ikkita usul bo'yicha amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan:

- 1) Pul-kredit instrumentlari vositasida;
- 2) Iqtisodiy me'yorlar o'rnatish yo'li bilan.

Ushbu tijorat banklari faoliyatini tartibga solish usullarini quyida alohida ko'rib chiqamiz.

- 1) Markaziy bank davlat banki sifatida mamlakatning pul-kredit siyosatini yuritish ekan, pul-kredit dastaklari orqali tijorat banklarining likvidligiga, to'lov qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pul-kredit dastaklariga: qayta moliyalashtirish siyosati, hisob siyosati, majburiy zahira siyosati va ochiq bozor operatsiyalari kiradi.



- qayta moliyalashtirish siyosatida qayta moliyalashtirish stavkasini o'zgartirish orqali tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasining umumiy va bozor darajasining o'zgartirish tushuniladi. Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasi oshirilsa, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan kreditlarning ham foiz stavkasi oshadi. Bu esa, o'z navbatida, kreditlarning qimmatlashuviga, kredit oluvchilar sonining kamayishiga va shu asosida, kreditlar multiplikatori qisqarishiga sabab bo'ladi. Aksincha, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini pasaytirish yo'li bilan mamlakatda bank kreditlari foiz stavkasini pasaytirishga erishadi, natijada investitsion jarayonlarni moliyalashtirish rag'batlantiriladi;

- majburiy zahiralar siyosatida Markaziy bank tijorat banklarining depozitlar va majburiyatlar summasiga nisbatan majburiy zahira siyosatini qo'llaydi. Bunda asosan ikki maqsad, banklar kredit ekspansiyasini jilovlash va bank likvidligini ta'minlash ko'zlanadi;

- hisob siyosatida Markaziy bank tijorat banklarning veksellerini qayta hisobga olish orqali banklarning likvidligiga ta'sir etishni belgilaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, diskontli kreditlar berish mexanizmi mamlakatlarda bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, Germaniya Markaziy banki va AQSHning Federal rezerv tizimi diskont stavkalarini bozor stavkalaridan sezilarli darajada past qilib belgilaydilar. SHu sababli diskontli kreditlarga bo'lgan talabni ular ma'muriy yo'l bilan cheklaydilar. Ayrim Markaziy banklar diskont stavkalaridan pul bozoridagi vaziyatni boshqarishning asosiy instrumenti sifatida foydalanadilar;

- ochiq bozor siyosatida Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni ikkilamchi bozordan sotib olish yoki sotish operatsiyalarini amalga oshiradi. Shunisi xarakterliki, rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan AQSH, Yaponiya va Germaniyada Markaziy bankning qimmatli qog'ozlarni bevosita emitentning o'zidan birlamchi bozorda sotib olishi ochiq bozor operatsiyasi hisoblanmaydi, balki kredit operatsiyasi hisoblanadi. Demak rivojlangan xorijiy davlatlarda ochiq bozor operatsiyalari deganda qimmatli qog'ozlarning

ikkilamchi bozorlarda sotilishi yoki sotib olinishi bilan bog'liq operatsiyalar tushuniladi. Bu yerda Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotib olinishi tijorat banklarining likvidligini oshishiga va aksincha, qimmatli qog'ozlarni sotilishi ularning likvidligini pasayishiga sabab bo'ladi.

2) Markaziy bank tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy me'yorlar asosida tartibga soladi.

Quyida iqtisodiy me'yorlarning har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1) "Umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsienti" K1 quyidagicha hisoblanadi:

$$K1 = \text{Bank kapitali} / \text{riskni hisobga olib hisoblangan aktivlar}$$

K1 ning minimal ruhsat etilgan darajasi 0.1 ga teng (10 foiz). Bazel qo'mitasining tavsiyasi 0,08 (8%)

2) I darajali kapitalning yetarlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K2 = \text{I darajali kapital} / \text{riskni hisobga olib hisoblangan aktivlar}$$

K2 ning minimal ruhsat etilgan darajasi 0.05 ga teng (5 foiz)

3) Kapitalning yetarlilik darajasi talablari bilan bir qatorda tijorat banklari nomoddiy aktivlar va Gudvill chegirib tashlangan I darajali kapitalning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadigan leveraj koeffitsientiga rioya etishlari kerak:

$$K3 = \text{I darajali kapital} / (\text{Umumiy aktivlar} - \text{nomoddiy aktivlar} - \text{gudvill})$$

Leveraj koeffitsientining minimal ruhsat etilgan darajasi 0.06 ga teng (6 foiz).\*

4) Joriy likvililik koeffitsienti K4 quyidagicha hisoblanadi:

$$K4 = \text{Likvid aktivlar va 30 kun mobaynida qaytishi kerak bo'lgan aktivlar} / \text{talab qilib olguncha majburiyat va 30 kun mobaynida so'ndirilishi lozim bo'lgan majburiyatlar}$$

K4 me'orning eng kam miqdori 0,3 (30%).

---

\* O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomi (yangi tahriri), 25.07.2000, 949-son

5) Tajribadan shu narsa ma'lumki, ayrim tijorat banklari yuqori daromadni ko'zlagan holda talab qilib olgunga qadar va qisqa muddatda qo'yilgan omonatlar hisobidan kredit berish va boshqa aktiv operatsiyalarga uzoq muddatli tartibda joylashtiradilar. Jalb etilgan mablag'larning muddati kelgan paytda esa bank omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini muddatida bajarish imkoniga ega bo'lmaydi. Buning natijasida bank o'z to'lov qobiliyatini yo'qotadi. Bunday holat bankning o'z faoliyatigagina emas, balki omonatchilarning moliyaviy ahvoriga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bank operatsiyalarini bajarish bo'yicha litsenziyasi tortib olingan banklar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bir qarz oluvchiga va muassisga, bank aksiyadorlariga moliyaviy jihatdan bankning qurbi yetmaydigan darajada katta miqdorda kreditlar berilishi tijorat banki uchun juda xatarlidir. Shuning uchun, bir qarzdor yoki o'zaro daxldor qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi I darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak (K5).

6) Ishonchli kreditlar uchun tavakkalchilikning eng yuqori darajasi 1-bosqichli bank kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur (K6).

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash lozimki, bank uchun yirik toifaga kiradigan va bir qarz oluvchiga beriladigan kreditlar summasini shu qarz oluvchining o'z mablag'lari summasidan oshirmaslik tavsiya etiladi.

7) Bankning barcha yirik kreditlarining umumiy hajmi 1-bosqichli bank kapitalidan 8 martadan ortiq oshib ketishi mumkin emas (K7).\*

8) Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni xarid qilish (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) va yuridik shaxslarning ustav kapitalida ulushli ishtirok etishda quyidagilarga rioya etishlari shart:

Bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga, shuningdek ushbu yuridik shaxsning boshqa qimmatli qog'ozlariga kiritgan investitsiyalari

---

\* O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi Nizomi, 02.12.1998, 557-son

miqdori I darajali bank regulyativ kapitalining 15% dan oshmasligi kerak (K8).

9) Bankning yuridik shaxslar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalari miqdori I darajali bank regulyativ kapitalining 50% dan oshmasligi kerak (K9).

10) Oldi-sotdi uchun qimmatli qog'ozlarga kiritilgan bank investitsiyalari miqdori I darajali bank regulyativ kapitalining 25% dan oshmasligi kerak (K10).\*

11) Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning yana bir muhim sohalaridan biri bog'liq shaxslar bilan bank operatsiyalarini o'tkazish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga asosan bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan bankka bog'liq bo'lmagan shaxslarga nisbatan qulayroq shartlar asosida bitim tuzishni taqiqlaydi va Markaziy bankka bunday bitimlar bo'yicha cheklashlar belgilash yuzasidan vakolatlar berilgan.

Bankning asosiy aksiyadorlari, uning rahbarlari, xodimlari va ular bilan bog'liq shaxslar bank xizmatlaridan imtiyozli asosda foydalanmasliklari va amaldagi qonunlarga rioya qilishlari kerak.

Bankka daxldor shaxslarga beriladigan bitta kreditning umumiy hajmi bir yoki o'zaro daxldor qarz oluvchilar guruhiga beriladigan bitta kredit tavakkalchiligining maksimal miqdoriga nisbatan tartibga solinadi (K11).

12) Bir yoki o'zaro daxldor shaxslar guruhiga berilgan ta'minlanmagan kreditlarning eng yuqori darajasi I darajali bank kapitalining 5% dan oshmasligi zarur (K12).

13) Bankning barcha daxldor shaxslarga bergan kreditlarining umumiy summasi bankning I darajali (asosiy) kapitalining 100% dan oshmasligi kerak (K13).\*

---

\* "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom, 2009, 1894-son

Tijorat banklari yuqorida sanab o'tilgan iqtisodiy me'yorlarning belgilangan miqdoriga har doim amal qilib borishni ta'minlashlari uchun quyidagi sohalarda ishni samarali tashkil etishlari lozim:

- Bank portfelini yaxshilash;
- Bank amallari bilan bog'liq xatarlarni kamaytirish;
- Bank balansi likvidligini ta'minlash;
- O'z sarmoyasining adekvatligini ta'minlash;
- Zararlar o'rnini qoplash zahirasini vujudga keltirish.

Iqtisodiy me'yorlarning belgilangan miqdorlariga amal qilmagan banklarga nisbatan Markaziy bank tomonidan jarimalar solish va boshqa tegishli iqtisodiy jazo choralari ko'rib boriladi. Chunki tijorat banklari faoliyatini tartibga solish deyarli barcha mamlakatlarda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy normativlarni belgilashdan asosiy maqsad tijorat banklarining to'lovga noqobil bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik va shuning asosida banklarning mijozlarini, vakil banklarni himoya qilish hisoblanadi.

Yuqoridagi iqtisodiy normativlarni ishlab chiqishda milliy bank tizimining rivojlanishidagi ayrim muhim xususiyatlar hisobga olingan holda Bazal qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan normativlardan keng ko'lamda foydalanilgan.

Mazkur tijorat banklarini tartibga solish usullarining har biri o'zining muayyan afzallik va kamchiliklariga ega bo'lib, ular quyidagilar:

- tijorat banklarining taqdim qilinadigan hisobot ma'lumotlarining unchalik ishonchli emasligi, buning natijasida nazorat organlarining ushbu banklar faoliyati to'g'risida noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin;
- tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy me'yorlar orqali tartibga solish o'zining o'ta tezkorligi, kam xarajatligi va bank bilan aloqador bo'lmagan

---

\* "Banklar va ularga daxldor shaxslar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar to'g'risida"gi Nizom, 02.12.1998, 556-son

tashqi audit firmalari faoliyati bilan uzviy bog'liqlikda ishlashi bilan katta afzallikka egadir;

- pul-kredit instrumentlari orqali markaziy bank tijorat banklarini to'lov qobiliyatiga va ularning likvidligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, to'lovsizlik muammosini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydi va h.k.

XX asrning oxirlariga kelib xalqaro moliya bozorlarida globalizatsiyaning kuchayishi mamlakatlarning iqtisodiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bunda bank ishining baynalmilallashuvi natijasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimi xalqaro tavsif ola boshladi. Bank nazoratining zarurligi 1975 yilga kelib Yevropa Ittifoqi, AQSH, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda o'z aksini topdi. Natijada bank nazorati bo'yicha xalqaro tashkilot "Bazel qo'mita" vujudga keldi. Shu yilga kelib banklar faoliyatini tartibga solishning muhimligi hayotda o'z isbotini topgan.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi 1997 yil sentabr oyida "O'nta" rivojlangan davlatlar qatoriga kirmaydigan rivojlanayotgan davlat bilan o'zaro aloqani yo'lga qo'ygan holda, Samarali bank nazorati tamoyillari ro'yxati (Bazel prinsiplari)ni ishlab chiqdi. Ushbu me'yoriy hujjat rivojlangan "Yettilik" davlatlari moliya vazirlari tomonidan taqdim etildi va rivojlangan "O'nta" davlatlar a'zolari markaziy banklari raislari tomonidan ma'qullandi. Bu tamoyillar barcha davlatlar bank nazorati va boshqa davlat idoralari uchun fundamental hujjat bo'lib hisoblanadi. Mazkur asosiy tamoyillar o'zida Bazel qo'mitasi tomonidan 1988 yilda ishlab chiqilgan "Kapitalni baholashning xalqaro bir xillashtirish (konvergenstsiya) va standartlar" (Bazel I)\* asosiy talablarini ifoda etadi.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Samarali bank nazorati tamoyillari 25 ta asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Quyida ushbu tamoyillarining izohlarini keltiramiz.

---

\* Basel Committee on Bankig Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Standards. July 1988. Bank for International Settlements. <http://www.bis.org/bcbs/index.htm>

“Samarali bank nazorati uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlar” (1-tamoyil) samarali bank nazorati uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlar aks ettirilgan bo’lib, bunda:

- bank nazoratini amalga oshiruvchi organ aniq belgilangan vazifa va majburiyatga, operativ mustaqillikka va moddiy bazaga ega bo’lishi;
- bank nazorati uchun yetarli huquqiy asos zarurligi qayd etilgan.

“Litsenziyalash va tarkibiy tuzilish” (2-5 tamoyillar) banklarni litsenziyalash va talablar tarkibini o’z ichiga olib, mazkur tamoyillarda:

- banklar singari litsenziyalash va nazorat qilish talab etiladigan tashkilotlarga ruhsat etilgan faoliyat turlarini, tashkilotlarning nomida “bank” so’zidan foydalanishning qonuniyligi aniq belgilash;

- litsenziyalash jarayoni hech bo’lmaganda, bankda egalik munosabatlari tarkibini, direktorlar va bosh menejrlarning kasbga muvofiqligi to’g’risidagi ma’lumotlarni, bankning operativ moliyaviy rejasi, ichki nazorat tarkibi, bankning moliyaviy holatini, jumladan bankning o’z mablag’lari holatini baholashni o’z ichiga olishi;

- bank nazorati organi bank tomonidan amalga oshirilgan xarid yoki investitsiyalarni qayta baholash uchun o’ziga xos talablar o’rnatish vakolatiga ega bo’lishi hamda sho’ba va qaram tarkibiy tuzilmalar bank uchun yuqori riskni yuzaga keltirmasligiga va samarali bank nazoratini amalga oshirish uchun to’squinlik qilmasligiga ishonch hosil qilishi kerakligi belgilangan.

“Prudensial talablar va tartibga solish” (6-15 tamoyillar) majburiy talab va tartibga solish jarayonlari bilan bog’liq bo’lib, ularda:

- bank nazorati organi barcha banklar uchun bank o’z zimmasiga oladigan risk darajasiga mos keladigan kapital yetarliligi bo’yicha talablarini o’rnatishi, ehtimoliy yo’qotishlarni qoplay olish imkoniyatini inobatga olgan holda, kapital tarkibini aniqlab berishi;
- bank amaliyotga, aktivlar sifatini baholash metodikasiga mos keladigan, shuningdek kreditlar bo’yicha yo’qotishlarni zahiralar bilan ta’minlash

bo'yicha samarali siyosat ishlab chiqishi va shu asosda faoliyat ko'rsatishi lozimligi;

- bankka daxldor shaxslarni kreditlashda su'iste'mollikka yo'l qo'yilishi holatlarini bartaraf etish maqsadida bank nazorati organi banklardan kreditlarni hamma uchun bir xil shartlar asosida berilishini talab qilishi va uni samarali nazorat qilib borishi, shuningdek nazorat qilish va tavakkalchilikni kamaytirish maqsadida choralarni ko'rishi;

- bank nazorati organi bankda amalga oshirayotgan operatsiyalari hajmi va tavsifiga muvofiq ichki nazorat tizimining faoliyat ko'rsatishini talab qilishi, bu tizim – bankni boshqarish, zahiralarni to'ldirish, aktiv va passiyalar bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish, aktivlar saqlanishini kuzatish bo'yicha, mustaqil ichki va tashqi auditga tegishli funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha vakolat va majburiyatlarni aniqlab berishi.

“Banklarni joriy nazorat qilish uslublari” (16-20 tamoyillar)da banklar faoliyatini tartibga solishning joriy uslubi o'z aksini topgan bo'lib, ularda:

- bank nazorati organi umumiy xarakterdagi, shuningdek alohida masalalar bo'yicha banklar tomonidan taqdim etiladigan majburiy hisobot va statistik axborotni yig'ish, tekshirish va tahlil qilish vositasiga ega bo'lishi;

- bank nazorati organi joyiga chiqib tekshirish yoki tashqi audit o'tkazish orqali olingan axborotlarni mustaqil tekshirish imkoniyatiga ega bo'lishi va boshqalar ko'rsatilgan.

“Axborotlarni taqdim etish bo'yicha talablar” (21-tamoyil) axborotlarni taqdim etishga doir talablardan iborat bo'lib, unga ko'ra bank nazorati organi, bankning moliyaviy holati va uning daromadliligi to'g'risida ishonchli ma'lumotga ega bo'lish maqsadida, bankda o'rnatilgan tartib-qoidalarga va metodikaga muvofiq buxgalteriya hisobi yuritilayotganligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

“Nazorat qilish organlarining vakolatlari” (22-tamoyil)da esa nazorat organining vakolatlari, jumladan bank nazorati organi banklar tomonidan majburiy talablarining bajarilmasligi holatlari qayd etilgan, ya'ni bank



faoliyatida tartib buzilishiga yo'l qo'yilganda yoki boshqa har qanday yo'l bilan omonatchilar manfaatlariga xavf yuzaga kelgan taqdirda, to'g'rilashlar kiritish uchun yetarli vositalarga ega bo'lishi va zarur hollarda bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani bekor qilishi yoki tegishli idoralarga tavsiya berishi kerakligi qayd etilgan.

“Xalqaro bank operatsiyalari” (23-25-tamoyillar) xalqaro bank operatsiyalari to'g'risida tamoyillarda:

- bank nazorati organi xalqaro bank operatsiyalarini amalga oshiradigan bank muassasalari ustidan monitoring olib borish va bunday bank muassasalari tomonidan, va birinchi navbatda, ularning xorijdagi filiallari, qo'shma korxonalari va sho'ba banklari tomonidan boshqa davlatlarda o'tkaziladigan barcha turdagi operatsiyalarga nisbatan majburiy normalarni qo'llash orqali nazoratni amalga oshirishi;

- bank nazorati organlari, xorijiy banklar tomonidan mazkur mamlakatda amalga oshirilayotgan operatsiyalar milliy standartlarga mos kelishini talab qilishlari, bankning shtab-kvartirasi joylashgan mamlakat nazorat organlariga, mazkur bank va uning xorijdagi bo'linmalari ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zaruriy axborotlar taqdim etish vakolatiga ega bo'lishi lozimligi o'z aksini topgan.

Bazel qo'mitasi bank nazorati tizimini shakllantirishda asosiy e'tiborni Markaziy banklar tomonidan tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalari natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldini olish, kreditor va omonatchilar huquqini ximoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini yaratishga qaratdi.

Rivojlangan davlatlar bank nazorati organlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan, Bazel qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan, bank nazorati bo'yicha asosiy tamoyillar va xalqaro standartlarning jahonning barcha davlatlarida umumiy birlik sifatida qabul qilinishi, ushbu davlatlarda tijorat banklarini nazorat qilish organlari tomonidan olib boriladigan nazorat tizimini, xususan banklar faoliyatidagi risklarni boshqarish sohasidagi muhim tushuncha va

talablarni bir xillashtirish hamda ularni barcha davlatlar tomonidan bir xil baholash, yondashish imkonini berdi. Bu esa davlatlarda mavjud qonunchilik bazasi va nazorat organlari vakolatlarini zaruriy darajada o'zgartirilishini taqozo etdi.\*

Bizning fikrimizga ko'ra, risk bilan bank kapitalining yetarliligini hisoblash o'rtasida aloqalar mustahkamlanishi hamda Bazel qo'mitasining kapital tarkibi bo'yicha yangi talablari barcha davlatlarda qabul qilinishi jahon bank tizimini mutanosibligi va ishonchliligini mustahkamlashga, xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar o'rtasida raqobatni ta'minlashda hamda nazoratni kelishuv asosida amalga oshirilishiga katta yordam berdi. Bundan tashqari, yuqoridagi Bazel tamoyillarini mamlakatlar tomonidan qabul qilinishi har bir davlatda va xalqaro doirada moliyaviy barqarorlikka erishishda katta ahamiyatga ega.

Bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishda asosiy omil bo'lib kapital yetarliligi hisoblanadi. Bank kapitali operatsiyalarni amalga oshirish uchun boshlang'ich mablag', mijozlar va kreditorlar ishonchini oshirish hamda bankrotlikdan himoyalash funksiyasini bajarishdan tashqari, davlat nazorat organlari tomonidan bank faoliyatini tartibga soluvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich orqali tijorat banki moliyaviy nomutanosibligi va risk darajasining haddan ziyod kuchayib ketishini oldi olinadi. Bankning o'z kapitali xavf va zararlar vujudga kelganda bankni faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Shuning uchun kapitalning himoya alomatlari uning miqdori bilan emas, balki uni aktivlarga (birlamchi zahira, kreditlar, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqalar) joylashtirish tarkibi darajasi bilan belgilanadi. Bazel I talablariga muvofiq kapitalning yetarliligi xo'jalik subyektlariga ta'sir qiluvchi risk xarakteri bilan belgilanadi.

---

\* Xalqaro hisob-kitoblar bankinging rasmiy ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishda uslubiy asos sifatida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy me'yorlar majmuidan foydalaniladi.

Bazel qo'mitasining talablariga muvofiq, xalqaro faoliyatni amalga oshiruvchi banklar uchun riskka tortilgan birinchi darajali kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati 4 foiz, birinchi va ikkinchi darajali kapitallardan iborat umumiy kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati 8 foiz bo'lishi belgilangan. Kapital yetarli bo'lmaganda bank *aktiv operatsiyalarini qisqartirish, bank kapitalini oshirish, riski yuqori bo'lgan investitsiyalar miqdorini qisqartirish* orqali aktivlar tarkibini o'zgartirishi mumkin.

Kapital yetarliligini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan mazkur uslub kapital summasi bilan bank aktivlarining tavakkalchiligi o'rtasida o'rnatilgan bog'liqligiga asoslanadi.

Bazel qo'mitasi 2004 yil iyunda banklar kapitalining yetarliligini ta'minlash muammosi hamda ular tomonidan iqtisodiy me'yorlarni buzmasligi ustidan nazoratni yaxshilash masalalariga bag'ishlangan yangicha yondashuv "Kapitalni o'lchash va kapital standartlarni xalqaro yaqinlashtiruv (konvergentsiya)" (Bazel II)ni e'lon qildi.\* Bazel II uch komponentlarga asoslanadi:

- kapital yetarliligiga minimal talab;
- nazorat jarayonlari;
- bozor dastaklaridan samarali foydalanish (рыночная дисциплина).

Ya'ni "Kapitalni o'lchash va kapital standartlarni xalqaro yaqinlashtiruv (konvergentsiya)" bo'yicha yangi yondashuvning 1-komponenti kredit, operatsion va bozor risklarini baholashning ba'zi jihatlarini aks ettiruvchi bank guruhining kapitali yetarligiga minimal talablar, 2-komponenti joriy nazoratni va 3-komponenti bozor intizomini ko'rsatadi.

Mazkur 3 ta komponentlarni birgalikda qo'llash banklar tomonidan bank kapitalining risk va strategiyaga muvofiqlashtirishni ta'minlash orqali boshqaruvni yaxshilashga olib keladi.

---

\* Basel Committee on Bankig Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards. A Revised Framework. June 2004. Bank for International Settlements.  
<http://www.bis.org/bcbs/index.htm>

Bazel III tizimi, avvalgi tizimlardan farqli o'laroq, kutilayotgan ehtimoliy yo'qotishlar uchun rezervlar shakllantirishni, shu asosda, banklarda barqarorlashtirish jamg'armasini tashkil etishni, shuningdek, kapitalning yetarlilik va likvidlik darajasi mezonlarini kuchaytirishni ko'zda tutadi.

2010 yil sentyabr oyida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi bank kapitali va likvidligining yangi standartlari to'liq ishlab chiqilganligini e'lon qildi hamda noyabr oyida ushbu yangi standartlar katta yigirmalik davlatlari rahbarlarining Seul sammitida tasdiqlandi. Bazel III deya nomlanayotgan ushbu yangi standartlar banklar kapitali yetarliliga minimal talablarning tobora va bosqichma-bosqich kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu yangi standartlarga katta yigirmalik davlatlarida 2013 yildan boshlab o'tilishi hamda 2019 yilga kelib ushbu davlatlarda banklar o'z kapitallarini Bazel III talablariga to'liq moslashtirishlari kutilmoqda.

Bazel III talablari o'zi nimalardan iborat, degan savol yuzaga kelishi aniq. Ushbu savolga batafsilrok to'xtalib o'tsak.

Birinchiidan, yangi talablarga ko'ra, 1- darajali kapitalning yetarlilik darajasi 6 foizni (shu va kapitalga oid boshqa ko'rsatkichlar tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan hisoblanadi), shu jumladan, to'langan oddiy aksiyalar yoki 1- darajali asosiy kapital ko'rsatkichi (chegirmalardan keyin) 4,5 foiz miqdorda bo'lishi lozim. Bunda 1- darajali asosiy kapital ko'rsatkichi 2013 yilgacha 2 foiz, 2013 yildan 3,5 foiz, 2014 yildan 4 foiz va 2015 yildan 4,5 foiz miqdorda bo'lishi lozimligi belgilangan.

Ikkinchiidan, Bazel III da bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan «Bufer kapitali» deb umumiy nom olgan ikkita: konservatsion hamda kontrsiklik bufer kapitali tushunchalari kiritilmoqda.

Konservatsion kapital iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar davrida banklar zararlarini qoplash uchun o'ziga yarasha qalqon sifatida xizmat qilishi kutilmoqda.

**Minimal kapitalga qo'yiladigan talab bo'yicha yangi standartlarni  
tadbiq qilish grafigi \***

Risklar bo'yicha belgilangan minimal kapitalning o'rnatilishi davrlari (1 yanvar holatiga ko'ra)									
Ko'rsatgichlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Ustav kapitali koeffitsenti	2.0	2.0	3.5	4.0	4.5	4.5	4.5	4.5	4.5
Kapital himoya yostig'i	-	-	-	-	-	0.625	1.25	1.875	2.50
Ustav kapitali + kapital himoya yostig'i	2.0	2.0	3.5	4.0	4.5	5.125	5.5	6.375	7
I darajali kapital	4.0	4.0	4.5	5.5	6.0	6.0	6.0	6.0	6.0
Umumiy kapital	8.0	8.0	8.0	8.0	8.0	8.0	8.0	8.0	8.0
Umumiy kapital + kapital himoya yostig'i	8.0	8.0	8.0	5.0	8.0	8.625	9.25	9.875	10.5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, banklar konservatsion kapitalga 2016 yildan boshlab ega bo'lishlari va uning miqdori 2016 yildan 0,625 foiz, 2017 yildan 1,25 foiz, 2018 yil-dan 1,875 foiz va 2019 yildan 2,5 foiz bo'lishi talab etilmoqda.

Kontrsiklik kapital har bir mamlakat shart-sharoitidan kelib chiqqan holda, 0-2,5 foiz doirasida belgilanadi.

Banklar kontrsiklik kapitalga 2016 yildan boshlab ega bo'lishlari va uning miqdori 2016 yildan 0,625 foiz, 2017 yildan 1,25 foiz, 2018 yildan 1,875 foiz va 2019 yildan 2,5 foiz bo'lishi talab qilinmoqda. Ushbu talabni 2,5 foizga

\* FINANCIAL INSTITUTIONS ADVISORY & FINANCIAL REGULATORY, March 30, 2011, The New Basel III Framework: Implications for Banking Organizations

yetkazmagan banklarga dividendlar to'lash, o'z aksiya-larini qaytarib sotib olish hamda bonuslar to'lashga cheklovlar o'rnatiladi.

Yana bir yangi tushuncha — bu tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo'shimcha talablardir. Tizim uchun muhim banklar deganda hajmi, murakkabligi hamda tuzilmaviy o'zaro bog'langanligi sababli ularning tanazzulga uchrashi butun moliya tizimi inqiroziga hamda iqtisodiy faollik falajiga sabab bo'ladigan banklar tushuniladi. Bazel III da bunday banklar kapitaliga nisbatan qo'shimcha talablar ishlab chiqilishi lozimligi to'g'risida umumiy kelishuvga kelingan.

Demak, Bazel III ga ko'ra, banklar regulyativ kapitali ko'rsatkichi birinchi darajali bank kapitali, konservatsion bufer kapitali, kontrsiklik bufer kapitali hamda tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo'shimcha talablar yig'indisidan iborat bo'ladi.

## 2-jadval

### Bank kapitali tarkibining (Bazel III talablariga ko'ra) yangi ko'rinishi \* (tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan foizda)

	Jami to'langan(oddiy) aksiyalar (chegirmalardan keyin)	I darajali bank kapitali	Jami regulyativ kapital
<b>Minimal talab</b>	<b>4,5</b>	<b>6,0</b>	<b>8,0</b>
<b>Konservatsion bufer kapitali</b>	<b>2,5</b>		
<b>Minimal talab+ Konservatsion bufer kapitali</b>	<b>7,0</b>	<b>8,5</b>	<b>10,5</b>
<b>Kontrsiklik bufer kapitali</b>	<b>0-2,5</b>		

\* Bozor, Pul va Kredit/02(165) 2011,8-bet

Tijorat banklarida risk boshqaruvini takomillashtirish lozim. Xalqaro amaliyotda bank menejmentining markaziy bo'g'ini risk boshqaruvi ekanligi allaqachon isbotlangan. Bazel I, Bazel II va Bazel III standartlarining asl mohiyati ham risk va kapital o'rtasidagi bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bazel III kelishuvining bosh maqsadi – bank ishida risk boshqaruvi sifatini oshirish hisoblanadi.

Bazel III bilan banklar likvidligiga ham ikkita yangi talab kiritilmoqda. Birinchisi — bu 30 kungacha bo'lgan joriy majburiyatlarning likvid aktivlar bilan 100 foiz qoplanishini nazarda tutuvchi talab. Ushbu normativni hisoblashda inobatga olinadigan aktivlar sifatiga bo'lgan talablar kuchaytiriladi. Jumladan, likvid aktivlar sifatida baholanadigan qimmatli qog'ozlar reytingiga yanada yuqori talablar belgilanadi.

Ikkinchi normativ — uzoq muddatli likvidlik normatividir. Bankning normal faoliyati doirasida uning bir yilgacha bo'lgan aktivlari barqaror passivlar bilan 100 foizga ta'minlangan bo'lishi shart.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan davlatlar amaliy tajribasiga ko'ra, bank tizimining samarali va erkin faoliyat ko'rsatishi uchun Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda yuqorida qayd etilgan har ikkala pul-kredit hamda iqtisodiy me'yorlar usullaridan o'zaro aloqadorlikda samarali foydalanish talab etiladi.

## **II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI TOMONIDAN TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH AMALIYOTINING TAHLILI.**

### **2.1. Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy me'yorlar orqali tartibga solish amaliyoti.**

Tijorat banklarining faoliyatini iqtisodiy me'yorlar orqali tartibga solish bir nechta iqtisodiy me'yorlarni o'z ichiga olgan nazorat shakli hisoblanadi. Respublikamizda dastlabki iqtisodiy me'yor Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ustav kapitalini eng kam miqdoriga nisbatan belgilanadigan talab hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining dastlabki yillarida yangi aksiyadorlik tijorat banklarini ochish uchun talab qilinadigan minimal ustav kapitalining miqdori minimal ish haqi miqdorining o'sishiga bog'langan edi. Markaziy bank Boshqaruvining qarori bilan 1995 yildan bank ochish uchun minimal ustav kapitali miqdori o'sha vaqtda Yevropa Ittifoqi pul birligi-"EKYU" ga bog'lab qo'yildi. Faqat 1997 yildan boshlab, AQSH dollariga ekvivalent qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi 56-sonli «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdori 2007 yilning 1 yanvariga qadar quyidagi miqdorlarga yetkazildi:

-tijorat banklari uchun-so'mga aylantirib hisoblaganda 5 million AQSH dollarigacha;

-xususiy banklar uchun-so'mga aylantirib hisoblaganda 2,5 mln. AQSH dollarigacha\*.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil apreldagi №1317-sonli qaroriga muvofiq, banklarning kapitalini oshirish, investitsion jarayonda

---

\* Xalq so'zi // 2005, 16 aprel, 73-son.



faol ishtirok etishi uchun 2011 yil 1 yanvardan boshlab quyidagi miqdor belgilandi:

-tijorat banklari uchun-so'mga aylantirib hisoblaganda 10 million yevro ekvivalentida;

-xususiy banklar uchun-so'mga aylantirib hisoblaganda 5 mln. yevro ekvivalentida.

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida yangi ochilayotgan banklarning ustav kapitalining eng kam miqdoriga qo'yiladigan talablar\*

Yillar	Aholisi 0,5 mln. Kishidan ko'p bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Aholisi 0,5 mln. Kishidan kam bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
2000 yil 1 yanvardan	2,5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1,25 mln. AQSH dollari ekvivalentida	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	0,3 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2002 yil 14 maydan	2,5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1,25 mln. AQSH dollari ekvivalentida	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1,25 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2005 yil 1 iyuldan	3 mln. AQSH dollari ekvivalentida		5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1,5 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2006 yil 1 yanvardan	4 mln. AQSH dollari ekvivalentida		5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	2 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2007 yil 1 yanvardan	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida		5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	2,5 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2008 yil 1 yanvardan	5 mln. yevro ekvivalentida		2,5 mln. yevro ekvivalentida	
2011 yil 1 yanvardan	10 mln. yevro ekvivalentida		5 mln. yevro ekvivalentida	

Aksioner tijorat banklarini ochish uchun yuqoridagi shartlar AQSH bank amaliyotidan olingan\* .

\* O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning "iqtisodiy me'yorlar" moddasiga muvofiq, banklar barqarorligini ta'minlash maqsadida Markaziy bankka iqtisodiy me'yorlar o'rnatish vakolati berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 25 iyulda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 949-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomida ko'rsatilgan kapitalning yetarlilik talablari faqat kapital yetarligining eng kam darajasini aks ettiradi.

Ushbu Nizomda belgilangan tijorat banklari kapital yetarligining minimal darajasi Bazel standartlarida ko'zda tutilgan darajadan ma'lum jihatdan farq qiladi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

#### 4 -jadval

### O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari kapitali yetarliligiga nisbatan belgilangan talablarning xalqaro Bazel standartlaridan farq qiluvchi asosiy jihatlari:<sup>†</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Bank kapitali yetarligining minimal darajasi, foizda
1.	Tijorat banklari jami kapitalining yetarlilik darajasi:	
	- Xalqaro Bazel standartlari talabi	8
	- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talabi	10
2.	Tijorat banklari I darajali kapitalining yetarlilik darajasi	
	- Xalqaro Bazel standartlari talabi	4
	- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talabi	5

Respublikamiz tijorat banklari kapitalining etarligiga nisbatan qo'yilgan

\* Frey L.N. Organizatsiya i texnika raboty inostrannykh bankov.— M., «Gosfinizdat»: 1994.— 22 str.

† Respublika Markaziy banki va Xalqaro Bazel qo'mitasining me'yoriy yo'riqnomalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

talablar Bazel standartlaridan bunday tarzda farqlanishining asosiy sabablari tijorat banklari kapital bazasini mustahkamlashda ayrim muammolarning mavjudligi va tijorat banklari korporativ mijozlariga tegishli depozitlarni sug'urtalash tizimining mavjud emasligi.

Mazkur tizimning mavjud emasligi respublikamizda bank kapitalidan depozitlarni himoya qilish vositasi sifatida foydalanish zaruriyatini kuchaytiradi.

## 5-jadval

### Mamlakatimiz tijorat banklarida bank kapitali yetarliligi darajasi\*


№	Bank nomi	01.01.2012 y holatiga	01.01.2013 y holatiga	O'tgan yilga nisbatan	
				(+;-)	%
1.	Ravnaq bank	44,8%	78,0%	33,20	17
2.	O'T bank	81,8%	72,0%	-	88
3.	Kredit-standart bank	48,1%	72,0%	23,90	14
4.	Hi-tech bank	35,5%	41,9%	6,40%	11
5.	Samarqand bank	51,5%	35,5%	-	68
6.	Mikrokredit bank	37,9%	32,0%	-	84
7.	Universalbank	40,8%	31,7%	-	77
8.	Milliy bank	26,8%	24,9%	-	92
9.	Qishloq qurilish bank	27,6%	24,3%	-	88
10.	Turkiston bank	29,8%	21,4%	-	71
11.	Savdogar bank	22,8%	21,1%	-	92
12.	O'zKDB bank	22,5%	20,1%	-	89
13.	Trastbank	18,6%	19,3%	0,70%	10
14.	Orient-finans bank	34,4%	19,0%	-	55
15.	Aloqabank	17,8%	18,6%	0,80%	10
16.	Ipoteka bank	19,7%	16,8%	-	85
17.	Asaka bank	16,1%	16,3%	0,20%	10
18.	Ipak Yo'li bank	13,7%	15,3%	1,60%	11
19.	Hamkor bank	16,1%	15,2%	-	94
20.	Agrobank	13,3%	13,6%	0,30%	10
21.	Sanoatqurilish bank	11,7%	12,4%	0,70%	10
22.	Xalq banki	16,5%	12,1%	-	73

\* Tijorat banklari moliyaviy hisobotlari asosida hisoblandi.

Yuqoridagi jadvaldan ma’lum bo’ladiki respublikamiz tijorat banklarining barchasida O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan me’yoriy ko’rsatkich to’liq bajarilgan. Ayrim banklarda esa ushbu ko’rsatkich 4-6 barobar ko’proqdir.

Tijorat banklarining to’lovga qobilligini va ularning balansini likvidligini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy me’yorlar bo’lib, kapitalning yetarlilik koeffitsienti va joriy likvidlilik koeffitsienti bo’yicha belgilangan me’yorlar hisoblanadi. Chunki ikkala me’yorning bajarilishi bankning to’lovga qobilligini saqlash imkonini beradi.


2011-2012 yillar mobaynida respublikamiz tijorat banklari tomonidan ushbu iqtisodiy me’yorga rioya etish amaliyotining tahlili mazkur me’yorga rioya etish borasida jiddiy muammolar mavjud emasligini ko’rsatdi.



**1-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklarida birinchi darajali kapitalning yetarliligi\* (foizda).**

\* “Ahbor-Reyting” reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, 18-bet, fevral 2013-y.

Diagramma ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, tijorat banklarining I darajali kapital yetarliligi 2012 yil 1 yanvar holatiga 17,03 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yil 1 yanvar holatiga 15,84 foizni tashkil etgan. Keyingi ikkita chorakda biroz pasayib borgan va oxirgi chorakda biroz ko'tarilib, 2013 yil 1 yanvar holatiga 15,84 foizni tashkil etgan. Bu esa, Bazel talablaridan deyarli 4 barovarga ko'proq deganidir. Demak, bank tizimida tijorat banklarining barqaror manbalar hisobidan kapitallashuviga e'tibor qaratilgan. Tijorat banklari I darajali kapital yetarliligining bu darajasi ularning kapitallashuv darajasini yanada oshirish istiqboli mavjud ekanligini belgilaydi.




## 2-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklari asosiy kapitalining yetarliligi\* (foizda)

Diagramma ma'lumoti orqali umumiy kapitali yetarliligi tahlili 2011-2012 yillar oralig'ida bu ko'rsatkichning Bazel talablaridan 2-3 barovar yuqori bo'lgan holda 17%-20% atrofida bo'lgan. 2012 yil davomida eng

\* "Ahbor-Reyting" reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, 18-bet, fevral 2013-y.

yuqori ko'rsatkichga yil boshida erishilgan, ya'ni 17,8% bo'lgan bo'lsa, keyinchalik biroz tushgan va uchinchi chorakda yana oshish tendensiyasi kuzatilgan hamda yil 2013 yil boshiga 16,75 foizni tashkil etgan. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, respublikamiz tijorat banklarida kapital yetarliligiga qo'yilgan talablar yuqori darajada ta'minlangan.

Amaldagi uchinchi iqtisodiy me'yor–moliyaviy leveraj koeffitsienti bo'lib, u bankning birinchi darajali kapitalini nomoddiy aktivlar chiqarilgan holdagi aktivlarning jami miqdoriga nisbati sifatida aniqlanadi. Uning eng kam me'yoriy miqdori 0,06 qilib belgilangan.



**3-rasm. Banklarning leveraj koeffitsienti to'g'risida solishtirma ma'lumot\* (01.01.2013 yil holatiga, foizda)**

\* Tijorat banklari ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Leveraj bu bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. O'tgan yili bank tizimida ushbu ko'rsatkich 20,77 foizni tashkil etib, minimal ruhsat etilgan ko'rsatkich (0,06)dan 3 martadan yuqoriroq ko'rsatkichga erishgan. Hatto, ayrim banklarda ushbu ko'rsatkich 65 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Barcha banklarda minimal talab bajarilgan.

Tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini baholash maqsadida Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga nisbatan joriy likvidlik koeffitsienti belgilangan. Ushbu ko'rsatkich joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi va uning minimal darajasi 30 foizni tashkil etadi.

Ushbu iqtisodiy me'yor tijorat banki aktivlarining likvidli qismini talab qilib olingunga qadar bo'lgan majburiyatlarni qoplash darajasini tavsiflaydi. Bu esa, bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning muddati bilan ularni joylashtirish muddatlariga og'ishmay rioya etishni talab etadi.


Joriy likvidlilik koeffitsientining darajasiga kuchli va bevosita ta'sir ko'rsatadigan omil tranzaksion depozitlar yoki talab qilib olguncha depozitlar miqdorining o'zgarishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni risk darajasiga ko'ra ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

1. Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalariga qilingan investitsiyalar.

Bu operatsiyalarning risk darajasi past bo'lib, ular bankka qat'iy belgilangan foiz ko'rinishida barqaror daromad keltiradi. Buning ustiga, banklarning ushbu qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlari soliqqa tortilmaydi.

2. Tijorat qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar. Bu shakldagi investitsiyalarning risk darajasi yuqori bo'lib, bunda qimmatli qog'ozlarning bozor bahosini o'zgarishi va emitentlarning to'lovga qobilligi kafolatlanmagan.



**4-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklarining joriy likvidlilik dinamikasi\***

Mamlakatimiz bank tizimi joriy likvidlilik koʻrsatkichlari dinamikasini tahlil qiladigan boʻlsak, bunda joriy likvidlilik koeffitsienti 60-75 oraligʻida saqlanib turibdi. 2011 yil 1-choragida likvidlilik 67,66 foizdan 61,30 foizgacha kamaygan. Keyingi choraklarda muttasil oʻsib borgan va yil oxriga kelib 69,61 foizni tashkil etgan. 2012 yil mobaynida joriy likvidlilik koʻrsatkichida unchalik katta tebranishlar yuz bermagan, yaʼni yil davomida oʻrtacha 70 foiz saqlanib qolingan. 2013 yil boshiga esa joriy likvidlilik koʻrsatkichi 75,95 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, ushbu koʻrsatkich boʻyicha talab etiladigan eng kam darajadan 2 barobar yuqori boʻlishining taʼminlanganligi xalqaro moliya tashkilotlari va hamjamiyatning yuqori eʼtirofiga sazovor boʻlmoqda.

Bank tizimi likvidligin saqlashda Markaziy bank monetar usullarining roli katta boʻlmoqda. Bunda ochiq bozor siyosati, majburiy rezervlar siyosati, sterilizatsiya operatsiyalari muntazam ravishda oʻtkazib borildi. Joriy yilda

\* Ahbor-Reyting ” reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, 29-bet, fevral 2013-y.



ham bank tizimi likvidligining yetarli darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida zaruriy choralar ko'riladi.

Amaldagi o'n uchta asosiy me'yor bilan birgalikda tijorat banklarining ochiq valuta pozitsiyalariga nisbatan belgilangan me'yor ham mavjud bo'lib, uning miqdorlari bitta valutadagi pozitsiyada kapitalga nisbatan 10 foizni, barcha valutalardagi pozitsiyalarda 20 foizni tashkil qiladi.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish iqtisodiy me'yorlarining yuqorida batafsil keltirilishiga sabab, birinchidan, ular haqida iqtisodiy adabiyotlarda batafsil ma'lumot berilmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, ularning metodologik asoslarida kamchiliklarning mavjudligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2012 yil davomida olib borilgan respublika tijorat banklari faoliyatini masofaviy nazorat qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklariga nisbatan qo'llanilgan choralarning asosiy qismi ogohlantirish va unchalik katta miqdorda bo'lmagan jarimalar solishga to'g'ri keladi. Bu esa, Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga nisbatan qonunbuzarliklar uchun qo'llanilayotgan choralarning sezilarli darajada yumshoq ekanligidan dalolat beradi.

## **2.2. Tijorat banklari faoliyatini monetar instrumentlar orqali tartibga solish amaliyoti**

Iqtisodiyotida bozor munosabatlari shakllangan mamlakatlarda davlatning bank faoliyati sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- a) pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish;
- b) iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorliklarga barham berish;
- v) banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash;
- g) bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan yangi banklarni shakllantirish, ularni nazoratini rivojlantirish masalasi keskin darajada ko'ndalang bo'lib turibdi. Bugungi kunda Respublika hududida 29 ta turli xil mulkchilik shakliga asoslangan banklar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston bank tizimini qayta qurish mustaqil davlat iqtisodiy tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Xo'jalik mexanizmining bir maromda faoliyat yuritishi barqaror ishlaydigan banklar milliy tizimini taqozo etadi. Shu sababli iqtisodiyotda bozor munosabatlarini shakllantirish davrida sifat jihatidan butunlay yangi bank tizimi hamda bank nazoratini tub asosini yaratish va qurish uzluksiz davom ettirilmoqda.

Mamlakatimizning rivojlangan bank tizimini shakllantirish davlatimiz tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosatining mahsuli bo'lishi kerak.

Banklar ustidan nazorat qilish, ular faoliyatida muayyan cheklashlarni o'rnatish iqtisodiy erkinlikka zid bo'lgan holat sifatida qaralishi mumkin. Lekin jahonning ko'pgina rivojlangan davlatlarida banklar, shuningdek boshqa moliya tashkilotlarining faoliyatlari ko'p darajada davlat tomonidan tartibga solinadi. Boshqacha qilib aytganda, hatto rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy sektor jiddiy ravishda tartibga solinar ekan, o'tish davrida buni to'la oqlash mumkin.

Biroq bozor sharoitida moliya sohasini tartibga solish tovarlar va xizmatlar narxiga ta'sir ko'rsatish uchun bozor mexanizmlariga yetarli darajada harakat erkinligini berish, shuningdek mayda-chuyda narsalarga aralashishdan voz kechish bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'g'ri, bank faoliyatini tartibga solish haddan tashqari bo'ladigan va raqobatning rivojlanishiga xalaqit beradigan omilga aylanadigan chegarani belgilash oson emas. Shuning uchun jahonda umumiy qabul qilingan prinsiplar va qoidalar har bir mamlakatda aniq vaziyat tahlilini hisobga olgan holda qo'llaniladi.

U yoki bu tijorat bankining faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga majbur qilish uchun nazorat organi ixtiyorida ta'sir ko'rsatish choralarining muayyan to'plami bo'lishi kerak. Bizning yangi bank qonunlarimizda turli vaziyatlarda foydalanish mumkin bo'lgan darajalangan choralar majmui ko'zda tutilgan. Jumladan, iqtisodiy me'yorlarni o'zgartirish, majburiy zahira stavkalarini oshirish, ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishni ta'qiqlab qo'yish, hissadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatib qo'yish, bank ustidan vasiylik o'rnatish kabilardir. Eng so'nggi chora esa ularga berilgan ruhsatnomalarni (litsenziyalarni) qaytarib olishdan iboratdir.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining samarali amal qilishini ta'minlash kreditlar va depozitlarning foiz stavkalarining barqarorligiga erishish imkonini beradi. Bu esa, bank kreditlaridan foydalanayotgan mijozlar uchun ham, investitsion jarayonlarni moliyalashtirishda banklarning faol ishtirok etishini ta'minlash uchun ham muhimdir.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini barqarorligi tijorat banklari kreditlarining va depozitlarining barqarorligini ta'minlashga imkon yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zahira siyosati, qayta moliyalash siyosati tijorat banklarining faoliyatini tartibga solishda keng qo'llaniladi. Bu esa, mazkur instrumentlarning amal qilish mexanizmini boshqa monetar instrumentlarning amal qilish mexanizmiga nisbatan takomillashganligi bilan izohlanadi. Har ikkala instrument 1992 yilda joriy qilingan edi.

**6-jadval.****O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasi \***

<b>Amal qilish muddati</b>	<b>foizda</b>
2011 yil 1 yanvar -	12
2006 yil 15 iyul - 2010 yil 31 dekabr	14
2006 yil 1 yanvar - 2006 yil 14 iyul	16
2004 yil 21 dekabr - 2005 yil 31 dekabr	16
2004 yil 5 iyul - 2004 yil 20 dekabr	18
2003 yil 10 sentyabr - 2004 yil 4 iyul	20
2003 yil 16 iyul - 2003 yil 9 sentyabr	24
2002 yil 1 yanvar - 2003 yil 15 iyul	30
2000 yil 1 iyul - 2001 yil 31 dekabr	24
2000 yil 1 iyun - 2000 yil 30 iyun	27,6
2000 yil 1 may - 2000 yil 31 may	28,8
2000 yil 1 aprel - 2000 yil 30 aprel	30
1998 yil 1 yanvar - 2000 yil 31 mart	36
1997 yil 1 noyabr - 1997 yil 31 dekabr	30
1997 yil 1 yanvar - 1997 yil 31 oktyabr	39,6
1996 yil 1 avgust - 1996 yil 31 dekabr	48
1996 yil 1 iyul - 1996 yil 31 iyul	60
1995 yil 1 avgust - 1996 yil 30 iyun	84
1995 yil 1 iyul - 1995 yil 31 iyul	120
1995 yil 20 mart - 1995 yil 30 iyun	300
1995 yil 1 fevral - 1995 yil 19 mart	250
1994 yil 1 oktyabr - 1995 yil 31 yanvar	225
1994 yil 2 may - 1994 yil 30 sentyabr	150

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2011 yilning 1 yanvaridan yillik hisobda 14 foizdan 12 foizgacha tushirildi va yil davomida o'zgartirilmasdan saqlab turildi. Bu esa, o'z navbatida pul bozorida foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo'jalik

\* [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) ma'lumotlari asosida tuzildi.

yurituvchi subyektlar xarajatlarining kamayishi va buning natijasida ularning investitsion faolligini oshirishga xizmat qildi.

**7-jadval.**

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki majburiy rezervlar me'yorlari\* (foizda)**

Amal qilish muddati	Yuridik shaxslarning 1 yildan ortiq bo'lmagan muddatli depozitlari uchun	Yuridik shaxslarning muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlari uchun	Yuridik shaxslarning 3 yildan oshiq muddatli depozitlari uchun	Yuridik shaxslarning chet el valutasidagi depozitlari uchun
1994 yil 1 maydan		30	10	30
1995 yil 1 yanvardan		25	10	25
1996 yil 1 iyuldan		25	10	
1997 yil 1 dekabrda		20	10	
2000 yil 1 maydan		20		
2005 yil 1 fevraldan		15		5
2005 yil 1 avgustdan		15		8
2007 yil 1 sentabrda		13		
2008 yil 1 noyabrda		15		
2009 yil 1 sentabrda	15	12	10,5	Chet el valutasidagi depozitlar uchun ham shu me'yor o'rnatilgan

\* [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) ma'lumotlari asosida tuzildi.

Majburiy rezerv talablari muomaladagi pul massasini va bank tizimi likvidligini tartibga solishning muhim vositalaridan biri sifatida qo'llanilib kelinmoqda.


2012 yilda inflatsiya va pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqib hamda tijorat banklarida uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida, majburiy rezervlar normasi, yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha va 1 yilgacha bo'lgan muddatga jalb qilingan depozitlar uchun – 15 foiz, 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 12 foiz, 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun – 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan qoldirildi. 2012 yilda tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy rezervlari hajmi 443 mlrd. so'mga yoki yil boshiga nisbatan 31,8 foizga ko'paydi\*.

Markaziy bankning majburiy zahira stavkalarining pasayishi tijorat banklarining likvidligini oshishiga, resurs bazasini mustahkamlanishiga olib keladi. Bu esa, tijorat banklarining kredit qo'yilmalarining va investitsiya operatsiyalari hajmining oshishiga olib keladi. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining pasayishi tijorat banklari kreditlari va depozitlarining bozor foizini pasayishiga olib keladi.

Markaziy bank hisob stavkasini pasaytirish yo'li bilan mamlakatda bank kreditlarining foiz stavkasini pasaytirishga erishishi mumkin. Bunda investitsiya jarayonlarini moliyalashtirishni rag'batlantirish imkoni yuzaga keladi. Bundan tashqari, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan xarajatlarning ma'lum qismi xususiy sektor tomonidan bank kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi. Natijada Davlat budjeti xarajatlarini va uning asosida budjet defitsitini qisqartirish imkoni yuzaga keladi.

---

\* [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) ma'lumotlari.



**5-рasm. Tijorat banklari foiz stavkalarining o'zgarishi\***

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida qisqa muddatli kreditlarning va muddatli depozitlarning foiz stavkalarini pasayish tendensiyasi kuzatildi. Ya'ni qisqa muddatli kreditlar foiz stavkasi 2011 yilda 14,3% ni, 2012-yilda esa 13,6 % ni tashkil qilgan. Uzoq muddatli kreditlar o'rtacha foiz stavkasi 2011-yilda 13,5%ni , 2012-yilda 12,2 %ni tashkil qilmoqda.

Muddatli depozitlar 2011-yilda yuridik shaxslar uchun 6,8% dan 6% ga, jismoniy shaxslar uchun 9,6% dan 6,4%gacha pasaygan.

Bu esa, qayta moliyalashtirish stavkasining pasayish tendensiyasining mavjudligi bilan izohlanadi.

Markaziy bank o'zining monetar siyosati orqali tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoq tarkibiga ham ta'sir qila oladi. Ya'ni, bunda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga mansub bo'lgan korxonalariga tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berish jarayoni rag'batlantiriladi. Fransiya, Avstriya kabi Yevropa davlatlarida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berilgan holatlarda, kreditor banklarga tijorat veksellarini Markaziy bankda qayta hisobga olish jarayonida yengilliklar beriladi.

\* www. cbu.uz ma'lumotlari

**Mamlakatimiz tijorat banklari kredit portfelining tarmoqlar  
bo'yicha diversifikatsiyasi \***

<i>Kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlarida taqsimlanishi</i>	2011 (%)	2012 (%)
-sanoat	41.38	45.25
-qishloq xo'jaligi	11.30	9.50
-transport va kommunikatsiya	5.14	4.83
-qurilish	6.63	6.17
-savdo va umumovqatlanish	10.63	9.76
-moddiy texnik ta'minot	3.33	3.11
-komunal xizmatlar	1.36	1.47
-boshqa sektorlar	20.24	19.91


Tahlil qilingan davr mobaynida respublikamiz tijorat banklari kreditlarining asosiy qismi sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalariga berilgan. Bu esa, mazkur sohalarga juda katta miqdorda investitsion kreditlar berilganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida hukumatning kafolati asosida yirik miqdorda xorijiy banklardan kreditlar olindi.

Markaziy bank monetar siyosatining tijorat banklari faoliyatiga ta'sirining muhim jihatlaridan biri inflatsion jarayonlarni monetar siyosat orqali jilovlashni ta'minlash hisoblanadi.

---

\* Ahbor-Reyting " reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral ,2013-y





**6-rasm. O'zbekistonda inflatsiyaning yillik darajasi, \* foizda**

Inflatsiya darajasi mamlakatimizda 2007-2012 yillarda keskin o'zgarishlarga uchramagan va 6-8 foiz atrofida tebranib turibdi. 2007 yilda inflatsiyaning yillik darajasi 6,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 y ilda 7,0 foizni tashkil etdi.

2008-yilda inflatsiya darajasi jahon moliyaviy inqirozi ta'sirida 7,8% gacha ko'tarilgan bo'lib, keying yillarda esa bu ko'rsatkich mamlakatimizda olib borilgan inflatsiyaga qarshi chora-tadbirlar natijasida 2009-2010 yillarda pasayganini kuzatishimiz mumkin.

Umuman olganda, inflatsiyani davlat tomonidan doimiy tartibga solish mamlakat bank tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun ham muhimdir.

Markaziy bankning majburiy zahira stavkalarining va qayta moliyalash stavkasining pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi respublikamiz tijorat banklari kredit qo'yilmalarining o'sish tendensiyasiga ega bo'lishiga olib keldi.

\* [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) ma'lumotlari

## 9-jadval.

### Mamlakatimiz tijorat banklari kredit portfeli dinamikasi \*

Ran g	Bank nomi	Kredit portfeli, mln.	Ulushi, %	O'zgarishi
1	TIF Milliy bank	4 389 000,0	31,0	25,6
2	OAKB "Uzsanoatqurilishbank"	2 255 466,3	15,9	20,7
3	GAKB "Asaka" (OAO)	1 588 277,7	11,2	35,3
4	OAKB "Agrobank"	1 006 754,6	7,12	9,77
5	AKIB "Ipoteka-bank"	914 156,2	6,47	53,2
6	OAKB "Qishlok-qurilish bank"	909 391,8	6,44	84,6
7	DT Xalq banki	743 401,9	5,26	36,2
8	OAKB "Mikrokreditbank"	382 773,3	2,71	25,8
9	OAK "Alokabank"	304 591,2	2,16	45,1
10	OAKB "Xamkorbank"	289 681,8	2,05	31,7
11	OAKB "Turon bank"	271 287,2	1,92	39,5
12	OAIKB "Ipak Yuli"	256 626,7	1,82	40,8
13	OAKB "Kapitalbank"	195 409,0	1,38	28,1
14	OAKB "Savdogar"	128 092,8	0,91	14,4
15	CHOABB "Trast Bank"	124 378,3	0,88	80,9
16	CHOAKB "InFinBank"	62 707,0	0,44	86,2
17	ZAO Uz KDB Bank	62 698,5	0,44	-
18	OAKB "Kredit-Standart"	48 353,4	0,34	43,7
19	OAKB "Asia Alliance Bank"	43 346,8	0,31	145,
20	CHOAKB "Turkiston"	30 647,5	0,22	53,6
21	CHZAKB "Orient Finans Bank"	28 291,9	0,20	0,00
22	CHOAKB "Hi-Tech Bank"	26 938,3	0,19	0,00
23	CHOAKB "Universalbank"	18 914,8	0,13	77,2
24	OAKB "Samarkand"	15 241,5	0,11	39,7
25	CHOAKB "Amir bank"	10 673,6	0,08	67,2
26	CHZAKB "Davr bank"	10 564,3	0,07	202,
27	CHOAKB "Ravnak bank"	9 682,5	0,07	50,6
28	ZAO UT Bank	2 575,0	0,02	-
29	RBS O'zbekiston MB	97,4	0,00	-
30	Bank Saderat	92,5	0,00	-
<b>Jami</b>		<b>14 130 114</b>	<b>100,</b>	<b>30,5</b>

\* Ahbor-Reyting " reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral 2013-y.

Joriy yilda mamlakatimiz tijorat banklari kredit qo'yilmalari o'tgan yilga nisbatan 30,5 foizga oshgan va 14,1 trln so'mni tashkil etgan.

O'z navbatida, tijorat banklari kreditlarining o'sish tendensiyasiga ega bo'lishining zaruriy shartlaridan biri ularning depozit bazasini barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Respublikamizda 2010-2011 yillar mobaynida tijorat banklari depozit bazasining barqaror o'sish sur'ati kuzatildi.

**10-jadval.**

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2012 yil 1 yanvar holatiga depozitlar qoldig'i\* , mln so'm**

Rang	Bankning nomi	2011 yilda jami depozitlar, mln so'm	ulushi, %da	o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi
1	TIF Milliy banki	2 729 700,00	20,58%	29,83%
2	DAT "Asaka" (OAJ)	2 126 769,10	16,03%	39,30%
3	OATB "O'zsanoatqurilishbank"	1 428 230,90	10,77%	73,92%
4	DT Xalq banki	1 116 585,70	8,42%	31,73%
5	OATB "Agrobank"	930 103,00	7,01%	22,45%
6	ATIB "Ipoteka-bank"	838 740,90	6,32%	58,79%
7	YOAJ O'z KDB Bank	581 732,20	4,38%	245,37%
8	OAITB "Ipak Yuli"	404 117,00	3,05%	33,93%
9	OATB "Qishloq qurilish bank"	402 989,20	3,04%	28,75%
10	RBS O'zbekiston MB	356 649,60	2,69%	4,56%
11	OATB "Hamkorbank"	336 954,20	2,54%	27,28%
12	OATB "Kapitalbank"	325 385,50	2,45%	40,73%
13	XOABB "Trast Bank"	316 740,10	2,39%	28,13%
14	OAT "Aloqabank"	315 440,10	2,38%	53,01%
15	OATB "Turon bank"	249 729,00	1,88%	30,85%
16	OATB "Mikrokreditbank"	144 359,10	1,09%	18,93%
17	OATB "Asia Alliance Bank"	132 945,20	1,00%	141,30%
18	OATB "Kredit-Standart"	102 162,70	0,77%	-45,22%
19	OATB "Savdogar"	100 614,50	0,76%	-8,25%
20	XOATB "InFinBank"	99 087,90	0,75%	74,27%
21	XYOATB "Orient Finans Bank"	52 746,20	0,40%	0,00%
22	XOATB "Turkiston"	34 996,70	0,26%	52,90%
23	XOATB "Universalbank"	27 221,60	0,21%	42,03%
24	YOAJ O'T Bank	26 068,60	0,20%	37,54%
25	XOATB "Hi-Tech Bank"	21 641,80	0,16%	0,00%
26	OATB "Samarqand"	19 240,30	0,15%	83,56%
27	XYOATB "Davri bank"	16 808,60	0,13%	22,01%
28	XOATB "Ravnaq bank"	13 901,10	0,10%	-11,36%
29	XOATB "Amir bank"	8 090,70	0,06%	162,23%

\* Ahbor-Reyting " reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral, 2013-y

30	Bank Soderat	7 303,00	0,06%	4,97%
Jami		13 267 054	100,00%	39,79%

Tijorat banklari depozitlari o'tgan yilga nisbatan 39,79 foizga oshgan va 13.3 trln so'mni tashkil etganligi ijobiy holat hisoblanadi. Depozitlar tarkibida dastlabki 8 ta bankning ulushi 78 foizni tashkil etadi. Eng yuqori o'sish O'zKDB bankida kuzatilgan, uning o'zgarishi 245,4 foizni tashkil etganligi bankni kuchli yettitalikka olib kirgan. OATB Kredit-Standart bank va OATB Savdogar banklarda esa depozit bazasi o'tgan yilga nisbatan kamaygan.

**11-jadval.**

**2012 yil 1 yanvar holatiga jismoniy shaxslarning banklardagi depozitlari qoldig'i.\***

Rang	Bankning nomi	Jismoniy shaxslarning depozitlari qoldig'i, mln so'm	ulushi, %da	o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi
1	DT Xalq banki	762 544,10	23,54%	27,50%
2	OATB "Agrobank"	495 009,30	15,28%	39,63%
3	TIF Milliy banki	363 300,00	11,22%	4,13%
4	DAT "Asaka" (OAJ)	264 346,80	8,16%	33,83%
5	OATB "O'zsanootqurilishbank"	215 679,70	6,66%	5,73%
6	OATB "Qishloq-qurilish bank"	214 747,60	6,63%	24,29%
7	ATIB "Ipoteka-bank"	193 625,80	5,98%	25,25%
8	OATB "Kapitalbank"	144 628,50	4,47%	66,64%
9	OATB "Hamkorbank"	128 328,30	3,96%	34,02%
10	OAITB "Ipak Yuli"	110 841,10	3,42%	47,02%
11	OAT "Aloqabank"	72 783,70	2,25%	60,58%
12	OATB "Mikrokreditbank"	59 683,40	1,84%	28,02%
13	OATB "Turon bank"	57 838,20	1,79%	40,79%
14	XOABB "Trast Bank"	24 375,00	0,75%	53,21%
15	OATB "Savdogar"	22 916,90	0,71%	10,07%
16	OATB "Kredit-Standart"	19 258,10	0,59%	13,23%
17	YOAJ O'z KDB Bank	18 434,50	0,57%	28,89%
18	XYOATB "Orient Finans Bank"	13 256,20	0,41%	0,00%
19	XOATB "InFinBank"	10 394,30	0,32%	196,49%
20	RBS O'zbekiston MB	8 113,90	0,25%	21,40%
21	XOATB "Turkiston"	7 537,80	0,23%	446,38%
22	XOATB "Universalbank"	5 717,90	0,18%	81,32%
23	XOATB "Ravnaq bank"	5 182,90	0,16%	70,85%
24	YOAJ O'T Bank	3 756,70	0,12%	46,37%

\* Ahbor-Reyting" reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral, 2013 y.

25	OATB "Asia Alliance Bank"	3 583,00	0,11%	57,97%
26	XOATB "Hi-Tech Bank"	3 463,60	0,11%	0,00%
27	XYOATB "Davr bank"	3 157,80	0,10%	42,34%
28	OATB "Samarqand"	3 111,10	0,10%	144,89%
29	XOATB "Amir bank"	3 008,50	0,09%	86,89%
30	Bank Soderat	249,9	0,01%	2,31%
Jami		3 238 875	100,00%	28,66%

Banklarga bo'lgan ishonch yil sayin oshib bormoqda. Bunga yaqqol dalil sifatida jismoniy shaxslarning banklardagi depozitlari qoldig'ining o'tgan yilga nisbatan 28,8 foizga oshganligi va joriy yil boshiga 3,2 tln so'mni tashkil etganligini keltirishimiz mumkin. Aholi omonatlarining oshishida yana bir muhim omil-ularning to'liq kafolatlanganligi ham muhim o'rin tutadi.

## 12-jadval.


### Mamlakatimiz tijorat banklarining depozitlari va omonatlari tarkibi dinamikasi \*

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil		2011 yil	
		mln so'm	foizda	mln so'm	foizda
1.	Jami jalb qilingan mablag'lar	7 403 666	100	10 537 355	100
	- so'mda	6 002 257	81,07	7 663 151	72,72
	- xorijiy valutada	1 401 408	18,93	2 874 204	27,28
2.	Yuridik shaxslarning depozitlari	5 232 427	70,67	7 661 824	72,71
	- so'mda	4 140 276	55,92	5 224 987	49,59
	- xorijiy valutada	1 092 152	14,75	2 436 837	23,13
2.1.	Talab qilib olinguncha depozitlar	3 964 337	53,55	5 780 493	54,86
	- so'mda	3 004 993	40,59	3 648 295	34,62
	- xorijiy valutada	959 344	12,96	2 132 198	20,23
2.2.	Jamg'arma depozitlari	51 798	0,7	63 933	0,61
	- so'mda	43 657	0,59	55 158	0,52
	- xorijiy valutada	8 142	0,11	8 775	0,08
2.3.	Muddatli depozitlar	1 216 292	16,43	1 817 398	17,25
	- so'mda	1 091 626	14,74	1 521 534	14,44
	- xorijiy valutada	124 666	1,68	295 864	2,81
3.	Jismoniy shaxslar omonatlari	2 171 238	29,33	2 875 531	27,29

\* Ahbor-Reyting " reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30. fevral, 2013-y

	- so'mda	1 861 981	25,15	2 438 164	23,14
	- xorijiy valutada	309 257	4,18	437 367	4,15
3.1.	Talab qilib olinguncha depozitlar	818 592	11,06	940 779	8,93
	- so'mda	738 490	9,97	849 520	8,06
	- xorijiy valutada	80 102	1,08	91 259	0,87
3.2.	Jamg'arma depozitlari	537 962	7,27	803 141	7,62
	- so'mda	493 790	6,67	734 258	6,97
	- xorijiy valutada	44 172	0,6	68 883	0,65
3.3.	Muddatli depozitlar	814 684	11	1 131 611	10,74
	- so'mda	629 702	8,51	854 386	8,11
	- xorijiy valutada	184 983	2,5	277 225	2,63

Yuridik shaxslarning depozitlari jami depozitlarning 72,71 foizini tashkil etgan bo'lsa, jismoniy shaxslarning omonatlari esa 27,29 foizga teng bo'lgan. Yuridik shaxslar depozitlari tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi nihoyatda yuqori (54,86 %)ligi salbiy holat hisoblanadi. Muddatli depozitlari biroz oshgan bo'lsa, jamg'arma depozitlari 0,09 foizga kamaygan. Aholi omonatlari tarkibi o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarmay qolgan.



**5-rasm. Banklarning aktivlari to'g'risida solishtirma ma'lumot\*  
(01.01.2013 yil holatiga, jamiga nisbatan foizda)**

Bank aktivlarining bankning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Chunki bankning daromadi shakllanadigan manbalar aktivlardir. Tijorat banklarining jami aktivlari yil davomida 30,2 foizga oshib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 35,7 trln. so'mga etdi. Aktivlarning yarmidan ko'prog'i yirik 3 ta bank hissasiga to'g'ri keladi. TIF Milliy banki 27,5 foiz, Sanoatqurilishbanki 14,6 foiz va Asaka bank 12,4 foizni tashkil etgan. Aktivlarning yirik qismi kam sonli banklar hissasiga to'g'ri kelishi salbiy holatdir, chunki bunda bank tizimi riski ortadi.

\* Tijorat banklari ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Markaziy bankning monetar siyosati doirasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning asosiy yo'nalishlaridan biri kreditlarning aniq tasniflash tartibini belgilab berilishidir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 9 noyabr 1998 yilda tasdiqlangan 242-sonli «Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zahiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi»ga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha «yaxshi», «standart», «substandart», «shubhali», «umidsiz» yoki «ishonchsiz» kreditlarga tasniflanadi.

Kredit portfelini berilgan ssudalarning ta'minlanganlik darajasiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

**Yaxshi kreditlar**\*. Kreditning bunday sifatda baholanishi, mijozning aktivlari, ularning holati bo'yicha hech qanday gumon yo'qligidan dalolat beradi. Moliyaviy jihatdan barqaror, xo'jalik oboroti yuqori darajada o'z kapitali bilan ta'minlangan, yuqori rentabellik ko'rsatkichlariga ega, debitor va kreditor qarzlarning aylanish muddati qisqa va hakoza. Bu kredit egalari moliyaviy barqaror xo'jalik subyekti bo'lib, u yuqori darajadagi ta'minotga ega. Bunda asosiy e'tiborni qarz oluvchining avvalgi faoliyatidagi majburiyatlar bo'lgan munosabatga, oson realizatsiya qilinuvchi aktivlar va yuqori likvidli mablag'lardan tashkil topgan ishonchli kredit ta'minotiga qaratish kerak. Ushbu toifadagi kreditlarda qaytarmaslik belgilari mavjud emas, banklar uchun zarar ko'rish imkoniyatlari minimal darajada bo'ladi, kreditning ta'minlanganligining (garov, kafolat va boshqalar) sifati, ta'minlanganlikka olingan mol-mulk, garov va boshqalarning tarkibida tez pulga aylanadigan aktivlar va yuqori likvidli mablag'lar salmog'ining

---

\* Markaziy bank «yaxshi» kreditlar bo'yicha zaxiralarni yaratish majburiy talab emasligini tan oladi. Biroq, banklar o'z xohishlariga ko'ra soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng qolgan foyda hisobiga bunday zaxiralarni tashkil qilishlari mumkin. Xalqaro bank amaliyotida bunday zaxiralar miqdori kredit summasining 2-3 foizini tashkil qiladi.



yuqoriligi e'tiborga olinadi. Kredit bo'yicha olingan ta'minlanganlik (garov, mol-mulk va boshqalar) kredit summasi va u bo'yicha foiz stavkalarini to'lashga etarli bo'lgandagina kredit ta'minlangan deb baholanishi mumkin.

Kredit bo'yicha barcha hujjatlar qonun bo'yicha hujjatlashtirish va bank zarar bo'lgan kreditni undirib olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur (kreditning qaytarilmaslik ehtimoli cheklangan bo'lsada). Kreditning bu guruhida mijozning faoliyatiga ikki asosiy omilga, ya'ni:

-mijozning oldingi faoliyatiga o'z majburiyatlariga bo'lgan munosabati;

Kredit bo'yicha aniq ta'minlanganlikning (garov, kafolat, mulk va boshqalar) bo'lishi va uning to'g'ri rasmiylashtirilganligiga alohida e'tibor beriladi.

**Standart kreditlar.** Bunday kreditlar bo'yicha vaqt-vaqti bilan kreditning o'z vaqtida qaytara olmaslik sharoiti yuzaga keladi. Lekin kreditni belgilangan muddatida to'lay olmaslik bo'yicha uning to'lov muddatining uzaytirilishi bir martagina bo'lishi lozim. Olgan krediti standart deb topilgan mijozlarning moliyaviy ahvoli odatda barqaror bo'ladi, lekin ma'lum vaqtinchalik sabablar tufayli uning faoliyatida salbiy moliyaviy holat yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Bunday kreditlar qatoriga yaxshi rasmiylashtirilmagan kreditlar, garov bilan ta'minlanganligi bo'yicha to'g'ri hujjatlashtirilmagan yoki hujjatlar etarli bo'lmagan kreditlar ham kirishi mumkin. Bu kreditlar bo'yicha 10 foiz atrofida zahira tashkil qilinishi zarur.

**Substandart kreditlar.** Bu guruhga kiruvchi kreditlar ularning sifati yetarli darajada emasligini bildiruvchi aniq belgilarga ega bo'ladi. Bu asosan kreditlarning bankga qaytarib to'lanishida ma'lum kamchiliklarning mavjudligi va kreditning ta'minlanganligi sifatida qabul qilingan boshlang'ich manbalar kreditni to'lash uchun etarli bo'lmasligi natijasida qarzni to'lash uchun qo'shimcha manbalarni topish zarurligini ko'rsatadi. Substandart kreditlar qarz oluvchining ishonchli moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyatining yuqori darajasi bilan himoyalangan. Bu kreditning ta'minlanganligini tashkil qiluvchi manbalar ma'lum risklar bilan bog'liqligini, kreditning joriy

holati bo'yicha etarli axborotning mavjud emasligi, garov hujjatlarida ma'lum kamchiliklar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu kreditlar moliyaviy ahvoli barqaror bo'lmagan, korxonaning to'lovga layoqatliligida kamchiliklar bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Substandart kreditlar bo'yicha 25 foiz kreditlar to'lanmasligi mumkin deb xulosa qilinishi va bu kreditlar bo'yicha to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun 25 foiz zahira tashkil qilinishi mumkin.

**Shubhali kreditlar.** Bu kreditlar yuqorida keltirilgan guruhlardagi kreditlarning barcha salbiy tomonlarini o'zida ifoda qilishi bilan birgalikda to'liq ta'minlanmaganlikka ega bo'lmagan, to'lanishi ehtimoli kam bo'lgan kreditlar kiradi. Bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 50 foizgacha zahira tashkil qilinishi lozim.

**Ishonchsiz kreditlar.** Bu kreditlar bo'yicha qarzlarning to'lanish ehtimoli deyarli yo'q. Bu aktivlar juda past qiymatga ega bo'lib, ularni aktivlar sifatida hisobga olib borish maqsadga muvofiq emas. SHuning uchun banklar bu kreditlarni o'z balanslarida zarar sifatida hisobga olishlari mumkin. Ishonchsiz kreditlar foyda hisobiga, buning uchun foyda etmagan hollarda esa bank sarmoyasi hisobiga balansdan chiqarilishi mumkin. Bank uchun bu kreditlar zarar sifatida tasniflanadi. Bundan tashqari bir yil va undan ortiq muddatda harakatsiz bo'lgan aktivlar, muddati o'tgan va foizlar bo'yicha qarzar ham zarar sifatida tavsiflanishi mumkin. SHu sababli bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 100 foiz zahira tashkil qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarorining 1-ilovasi 32-bandida, bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmini joriy qilish, zahiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda banklar aktivlari sifati monitoringini takomillashtirish, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilish belgilangan.


Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida 2011 yil 10 sentyabrda Markaziy bank Boshqaruvining «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari

tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 26/1-sonli qarori qabul qilindi.

Shu bilan birgalikda, kiritilgan o'zgartirishlar ko'ra, tijorat banklari o'z aktivlari sifatini tasniflash bo'yicha bir qator yangiliklar kiritildi.

Jumladan, eski qoidalarga ko'ra, 30 kungacha to'lov muddati o'tgan kreditlar «standart», 90 kungacha to'lov muddati o'tgan kreditlar «substandart» va 180 kundan ortiq kunga to'lovi kechiktirilgan kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflangan bo'lsa, yangi tartibga ko'ra shartnoma muddatida to'lanmagan va grafik bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha oraliq to'lovlar 180 kundan kechiktirilgan barcha kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflanadi.


Bundan tashqari, sud jarayonidagi aktivlar, qarzdorning moliyaviy holati yomonligi va to'lovga qobiliyatsizligi sababli to'lov muddati uzaytirilgan aktivlar hamda bank faoliyatida foydalanilmaydigan, muammoli kreditlarni qoplash uchun olingan mulklar, ular bank balansiga olingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan aktivlar ham «umidsiz» sifatida tasniflanadi.



**6-рasm. Bank aktivlari bo'yicha tashkil etilgan zahira to'g'risida solishtirma ma'lumot\* (01.01.2013 yil holatiga, jamiga nisbatan foizda)**

Aktivlar bo'yicha tashkil etilgan zahiralarning asosiy qismi uchta yirik tijorat banki hissasiga to'g'ri keladi. Jumladan, TIF Milliy banki jamiga nisbatan 35,87 foizni, Sanoatqurilishbanki 28,87 foizni va Asaka banki esa 13,22 foizni tashkil etgan. Jami zahira summasi o'tgan yilga nisbatan biroz oshgan. Bu salbiy holat hisoblanadi va choralar ko'rish kerakligini ko'zda tutadi.

\* Tijorat banklari ma'lumotlari asosida tayyorlandi



**7 -rasm. “Agrobank” OATB da qishloq xo’jaligi bo’yicha mavjud muammoli kreditlarning viloyatlar kesimida ulushi\* (2013 yil 1 yanvar holatiga ma’lumot, foizda)**

Qishloq xo’jaligida mavjud muammoli kreditlarni ko’radigan bo’lsak, viloyatlar ichida muammoli kreditlar bo’yicha eng asosiy o’rinni Qashqadaryo viloyati egallaydi. Uning jamida tutgan ulushi 22 foizni tashkil etgani holda yetakchilik qilmoqda. Buning asosiy sababi joriy yilda viloyatda ob-havo noqulayligi sababli paxta va g’alla hosilining yaxshi bo’lmaganligi hisoblanadi. Keyingi o’rinlarda mos ravishda Surxondaryo, Namangan, Jizzax (11 foiz), Sirdaryo (10 foiz), Toshkent viloyati (9 foiz) egallagan. Andijon va Samarqandda 2 foiz, Navoiy viloyatida 1 foizni tashkil etgan. Toshkent shahrida esa 0 foiz, sababi bu yerda qishloq xo’jaligi korxonalariga kredit berilmagan. Muammoli kreditlarni qaytarish yuzasidan tegishli choralar ko’rilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini monetar instrumentlar vositasida tartibga solish amaliyotini shakllantirgan.

\* OATB “Agrobank”ning yillik hisobot ma’lumotlari asosida hisoblandi.

### **III BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida mamlakatimizda bank tizimining o'rnini katta. Bank tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlaridan biri tijorat banklari faoliyatining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. Har qanday davlat iqtisodiyoti tayanadigan asosiy ustunlardan biri - barqaror bank tizimi hisoblanadi. Mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

Respublikamiz tijorat banklarining kapitalizatsiya darajasini oshirishni ta'minlash lozim.

Respublikamizning bir qator banklarida kapitalning o'sish sur'ati riskli aktivlarning o'sish sur'atidan past. Ushbu muammoni hal qilish bank aktivlarining tarkibida yuqori riskli aktivlarning salmog'ini pasaytirish hamda kapitalning o'sish sur'atini barqarorlash orqali amalga oshiriladi.

Respublikamiz tijorat banklarining qo'shimcha kapital bazasining zaif, ya'ni, birinchidan, tijorat banklari qo'shimcha kapitali tarkibida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari mavjud emas. Holbuki, rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida bunday qarz majburiyatlari qo'shimcha kapitalning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bank qo'shimcha kapitalining uchinchi tarkibiy qismi bank qoshida tashkil etiladigan kredit muassasalariga yo'naltirilgan moliyaviy qo'yilmalar hisoblanadi. Bunday muassasalarga banklar qoshida tashkil etiladigan, mustaqil balansga ega bo'lmagan lizing kompaniyalari, trast, faktoring kompaniyalari kiradi. Respublikamiz tijorat banklarida kapitalning ushbu moddasi ham mavjud emas.

Demak, tijorat banklarining qo'shimcha kapitali miqdorini oshirish yo'li bilan yalpi kapitalni o'stirishning real imkoniyatlari mavjud. Amaldagi iqtisodiy normativlarning asosiy qismi birinchi darajali kapitalga, ya'ni bankning asosiy kapitaliga nisbatan belgilangan.

Mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini, xususan, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini va undagi faoliyatini oshirish lozim. Chunki qimmatli qog'ozlar yuqori daromad keltiradigan aktivlardir. Xorij amaliyotida qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar ssuda operatsiyalaridan olingan daromadlardan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Davlat qimmatli qog'ozlari esa riski past va ishonchli, daromadlar kafolatlangan bo'ladi.

Majburiy zahira stavkalarini oshirilishi tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini qisqartiradi. Ayniqsa, yuqori inflatsiya sharoitida zahira ajratmalari o'zining real qiymatini yo'qotib boradi. Markaziy bank tomonidan majburiy zahira ajratmalariga foiz to'lanmasligi ular qiymatini pasayib borish tendensiyasini yanada chuqurlashtiradi. Shu sababli, fikrimizcha, majburiy zahira summalariga Markaziy bank tomonidan foiz to'lanishi lozim.

Tijorat banklarining likvidli aktivlari tarkibi daromad keltiruvchi aktivlar-DQMOLarning salmog'ini oshirish uchun Markaziy bank o'zining REPO operatsiyalari orqali banklarning DQMOLarni sotib olishdan manfaatdorligini oshirishi mumkin. Chunki keyingi vaqtlarda DQMOLarning auksion daromadlilik darajasini pasayishi kuzatilmoqda.

Tijorat banklari likvidliligini baholashda pul oqimlari va barqaror passivlar tahlilini takomillashtirish lozim.

Pul oqimlari tahlilidagi asosiy kamchilik aktivlar va passivlarni amaldagi qoplash muddatlarini prognozlashning murakkabligi hisoblanadi. Ushbu muammo bir qator xorijiy banklarda ham mavjud bo'lib, ularning ayrimlarida aktivlar va passivlarning qoplash muddatini hisobga olishdan voz kechilgan. Buning o'rniga bank likvidliligini aktivlarning likvidligi va passivlarning barqarorligini tahlil qilish asosida boshqarish joriy etilgan.

Biz mazkur banklar voz kechgan boshqarish usulining mavjud kamchiligini e'tirof etgan holda, aktivlarni, ularning likvidlilik darajasiga ko'ra, passivlarni esa barqarorlik darajasiga ko'ra tahlil etishni taklif qilamiz.

Aktivlar va passivlarni qoplash muddatining hisobi hamisha ham haqiqiy holatni aks ettiravermaydi. Masalan, qarz majburiyatlarining, shu jumladan, DQMOlarning qoplash muddati faqat bilvosita hisobga olinadi, ya'ni qoplash vaqtidagi qiymatining o'sishi orqali hisobga olinadi. Aksiyalar uchun esa umuman qoplash muddati mavjud emas. Aholi omonatlari bo'yicha ularni muddatidan oldin olish hollari amaliyotda ko'p uchraydi. Tranzaksion depozitlarni muddati bo'yicha ajratib bo'lmaydi.

Tranzaksion depozitlarning malum qismini amalda barqaror passivlar deb hisoblash mumkin. Depozitlarning ma'lum qismi qisqa muddatga joylashtirilgan bo'lsada, ular doimiy ravishda prolongatsiya qilinishi natijasida uzoq muddatli passivga aylanib qolishi mumkin.

Bunda lahzali likvidlilik deganda bankning mijozlarining joriy hisob-kitoblarini o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Lahzali likvidlilikni boshqarish kunlik to'lovlar darajasini baholash, pul mablag'larining zarur zahirasini rejalashtirish va ularni kunlik muvofiqligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Naqd shakldagi aktivlarga aylanma kassadagi naqd pullarni, «Nostro» vakillik hisobraqamlarining debetli qoldiqlarini, inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'larini va bir kunlik banklararo kreditlarni kiritish lozim.

Hisobli aktivlarga qisqa muddat ichida naqd aktivlarga aylana oladigan aktivlar kiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, likvidlilikning tahlilini har bir asosiy valuta turi bo'yicha alohida amalga oshirish lozim. Hozirgi vaqtda respublikamizning yirik banklarida asosiy valutarlar bo'lib so'm va AQSH dollari hisoblanadi. Tahlil jarayonidagi hisob-kitoblarni osonlashtirish maqsadida so'mdan boshqa barcha valutarlarni dollardagi ekvivalentini olish lozim. Shunday qilib, tahlil faqat ikki valutada amalga oshiriladi.

Likvidlilikni prognoz qilish maqsadida hisobli aktivlar balans qiymatining faqat ma'lum qismi olinadi. Bu holat shunday izohlanadiki, naqd aktivlar guruhiga kirmaydigan har qanday aktiv u yoki bu darajada o'zining bozor



bahosini va tabiiyki, hisobli qiymatini o'zgartirishi mumkin. Aktivlarning bozor bahosiga nisbatan kuchli ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lib, iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishi hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida hisobli aktivlarning bozor bahosini o'zgarishini hisobga olish maqsadida aktivning likvidlilik koeffitsienti tushunchasi kiritiladi. Ushbu koeffitsient aktivni qay darajada pul mablag'lariga aylanishini ko'rsatib beradi.

Bozor kon'yunkturasiining likvidlilik koeffitsientiga ta'siri aktivlar bahosining moliya bozorlarida doimiy ravishda o'zgarishi shaklida namoyon bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, qimmatli qog'ozlar bozorida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hisobli aktivlarni shakllanishida ssudalarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda savdo tashkilotlariga 3-4 oy muddatga berilgan ssudalarni to'g'ridan-to'g'ri hisobli aktivlar tarkibiga kiritish mumkin. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadlariga berilgan kreditlarni hisobli aktivlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq emas.

Shuningdek, bir necha yil mobaynida uzluksiz kreditlanib kelayotgan mijozga berilgan kreditlar hisobotda qisqa muddatli ssudalar shaklida aks etadi. Shu sababli, kredit liniyasi ochish yo'li bilan berilgan kreditlar prolongatsiya qilinishi ko'zda tutilgan kreditlar uzoq muddatli ssudalar sifatida baholanishi va hisobli aktivlar tarkibiga kiritilmasligi lozim.

Bank passivlarini tahlil qilishda, avvalo, ularni bir turdagi guruhlariga ajratish lozim. SHuningdek, ularni barqaror va nobarqaror passivlarga ajratish kerak.

Barqaror passiv deganda, qaytarib olinish ehtimoli minimal bo'lgan passivlar kiradi. Nobarqaror passivlar esa, mijozlar birdan talab qilib olishi mumkin bo'lgan passivlardan iboratdir.

Passivlarning barqarorlik darajasini barqarorlik koeffitsienti orqali baholash mumkin. Ushbu koeffitsient 1 sonidan chiqim koeffitsienti miqdorini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda chiqim koeffitsienti passiv miqdorini kamayishi mumkin bo'lgan salmog'ini ko'rsatadi.

Barqarorlik koeffitsientining miqdori passivlarning turlari bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi.

Barqarorlik koeffitsientiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Ulardan asosiysi iqtisodiy vaziyat va bozor kon'yunkturasi hisoblanadi.

Umumiqtisodiy va siyosiy vaziyatning yomonlashuvi, odatda, mijozlarning mablag'larini sezilarli darajada qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bu esa passivlarning barqarorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu holat birinchi navbatda aholining omonatlariga, banklarning mablag'lariga va yuridik shaxslarning joriy hisob raqamlarining nobarqaror qoldiqlariga tegishlidir.

Tijorat banklarining kredit operatsiyalari ko'lamini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, avvalo, Markaziy bankning joriy likvidlilik koeffitsientini hisoblash metodikasini o'zgartirish zarur. Hozirgi vaqtda amal qilayotgan metodikada joriy likvidlilik koeffitsienti likvidli aktivlarni tranzaksion depozitlar va bankning majburiy to'lovlari summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Tijorat banklarida majburiy to'lovlarni va tranzaksion depozitlarni yirik miqdorda ekanligi tufayli banklarning «Nostro» vakillik hisobvaraqlarida yirik miqdorda mablag'larni to'planib qolishi yuz bermoqda. Bizning fikrimizcha, metodikada tranzaksion depozitlarning o'zini qoldirish lozim, majburiy to'lovlar summasi metodikadan chiqarib tashlanishi lozim. Chunki majburiy to'lovlarni aktivlar va passivlarni boshqarish jarayonini takomillashtirish yo'li bilan, ortiqcha pul mablag'larini saqlamasdan, amalga oshirish mumkin. Masalan, 2013 yilning 1 yanvar holatiga, respublikamiz tijorat banklari jami depozitlarining 54,8 foizi tranzaksion depozitlarning hissasiga to'g'ri keldi\*. Bu esa, xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan normadan 27,8 punktga yuqori demakdir.

Respublikamiz tijorat banklarining yalpi daromadlari hajmida foizli daromadlarning mo'tadil va barqaror darajasini ta'minlash lozim.

---

\* O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobot ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Foizli daromadlar salmog'ining mo'tadil darajasini aniqlashda Xalqaro bank amaliyotida qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

a) tijorat banki yalpi daromadining hajmida foizli daromadlarning salmog'i 70 foizdan kam bo'lmasligi lozim;

b) kreditlardan olingan foizli daromadlarning bank foizli daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i 60 foizdan kam bo'lmasligi lozim.

Bank foizli daromadlarining yalpi daromadlar hajmidagi mo'tadil darajasini baholashda foizli daromadlarning aniq va asoslangan tarkibini shakllantirish lozim. Jahon banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklarining foizli daromadlarining tarkibiga uchta daromad turi kiritilishi lozim;

a) kreditlardan olingan foizlar;

b) belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlardan olingan foizlar;

v) qimmatli qog'ozlarni sotib olish-sotish hisobraqamlari bo'yicha olingan daromadlar.

Respublikamiz tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ularning likvidliligi va to'lovga qobilligiga salbiy ta'sir qilayotgan debitor-kreditor qarzdorlik muammosini hal qilish zarur.

Daromad keltirmaydigan bank aktivlariga debitorlarni tahlil qilishda katta e'tibor berish lozim. Chunki bu guruhda aktivlarning sifatini pasaytiruvchi aktivlar, muddati kechiktirilgan foizsiz ssudalar, muddati o'tgan ssudalar va foizlar, to'lanmagan ijara va boshqalar bo'lishi mumkin.

Muddati o'tgan ssudalarning kredit portfelidagi salmog'ini uch foizdan oshmasligi xalqaro bank amaliyotida normal holat hisoblanadi.

Agar muddati o'tgan ssudalar miqdori o'rnatilgan normadan 2 va undan ko'p marta ortiq bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

Ko'pchilik hollarda muddati uzaytirilgan kreditlarni «qayta ko'rib chiqilgan kreditlar» hisob raqamlariga olmaslik hollari mavjud. Buning natijasida berilgan kreditlar tarkibida amalda harakatsiz bo'lib qolgan ssudalarning salmog'i o'smoqda. Bundan tashqari, bankning foyda va zararlar hisobotida ko'rsatilgan foyda miqdorini asossiz ravishda yuqori qilib ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmoqda.

Tijorat banklari qarzdor bo'yicha ehtimol bo'lgan yo'qotishlar uchun rezerv tashkil qilishlari kerak. Bu rezervlarga mablag'lar amaldagi tartibda kiritiladi. Qarzlarni bo'yicha ehtimol tutilgan yo'qotishlar uchun rezerv xo'jalik organlariga berilgan kreditlar tahlili hamda bank risk darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilash asosida tashkil qilinishi kerak. Rezervlarni belgilash asosida rezerv hajmi amaldagi qarzdorlik yoki xatar guruhiga bog'liq bo'ladi. Berilgan qarzni kiritilgan xatar guruhi yomonlashgan taqdirda qarzlarni bo'yicha ehtimol tutilgan yo'qotishlar uchun rezervga ajratmalar har oyda o'tkazib borilishi lozimdir.

O'z vaqtida qaytarilmagan kreditlarni qaytarish choralari izlanilmasa va tezlik bilan chora-tadbirlar ko'rilmasa, bankning ustav kapitaliga, depozitga olingan mablag'larga, omonatchilarga mizojlarga katta zarar yetkaziladi va bank o'z majburiyatlarini bajarolmasdan bankrotlik darajasigacha borib qolishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun bank xodimlari tomonidan kreditlarni o'z vaqtida nazoratini olib borish zarur. Bankning kredit bo'limiga tegishli monitoring uzluksiz ravishda olib borilishi kerakdir. Kredit portfelidagi har bir kredit bo'yicha o'z vaqtida nazorat va nazorat natijasida muammoli kreditlarni qaytarish yoki konsultativ ko'rinishdagi ishlari olib borilsa, o'ylaymizki, kredit portfeli riskka tortilmaydi. Kreditlar muammoli kreditlarga aylanmasdan ularni ta'minoti garovga olingan mulkni sotuvga qo'yish yoki kreditni kafolatlagan shaxslardan o'z majburiyatlari ustidan chiqishni talab etishlari kerak.

## XULOSA.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish iqtisodiy me'yorlar orqali va monetar instrumentlardan foydalanish yo'li bilan tartibga solinadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda monetar instrumentlardan foydalanish amaliyoti takomillashmaganligi sababli iqtisodiy me'yorlar orqali tartibga solishga ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

2. Tijorat banklarining faoliyatini iqtisodiy me'yorlar orqali tartibga solish usulining afzalligi uning kam xarajatliligi, tashqi audit natijalari bilan uzviy bog'liqligida namoyon qiladi. Ayni vaqtda, ushbu usulning kamchiligi tijorat banklari tomonidan berilayotgan ma'lumotlarning ma'lum qismini ishonchli emasligida namoyon bo'ladi.

3. 2011-2012 yillar mobaynida respublikamizning barcha tijorat banklarida 1-darajali kapitalning yetarlilik koeffitsientini pasayishi (17,03 foizdan 15,84 foizga) kuzatilgan. Ushbu pasayish tijorat banklari kapitalining o'sish sur'atini riskli bank aktivlarining o'sish sur'atidan orqada qolayotganligi bilan izohlanadi.

4. 2010-2011 yillar mobaynida respublikamizning tijorat banklarining barchasida umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsientini pasayishi yuz berdi (17,80 foizdan 16,75 foizgacha). Bu holatlar milliy bank tizimiga bo'lgan ishonchga jiddiy putur yetkazishi mumkin.

5. Respublikamizda banklar faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish borasida quyidagi muammolarning mavjudligini ko'rsatdi:

-respublikamizning yirik tijorat banklarida kapitalning yetarlilik koeffitsientini pasayish tendensiyasining mavjudligi.

-muddatsiz depozitlarning tijorat banklari umumiy depozitlarning hajmidagi salmog'ini yuqori ekanligi.

-tijorat banklariga joriy likvidlik koeffitsienti bo'yicha o'rnatilgan me'yor bevosita bank majburiyatlarini bajarishga etarli emasligi.

-banklarning kreditlash amaliyotidagi kamchiliklar va xatoliklarining mavjudligi.

Yirik banklarda kredit operatsiyalarini tashkil qilish mexanizmi takomillashgan bo'ladi. Bu banklarda mijozning kreditga layoqatliligi tahlili chuqur yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular keyinchalik bankning bosh boshqarmasida amalga oshiriladi, ya'ni yuqori malakali mutaxassislar bu yerda to'planadi.

Respublikamiz tijorat banklari passivlari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlarining salmog'i juda kichik.

-kredit multiplikatorining tebranishi bilan bog'liq bo'lgan uslubiy muammo.

-mamlakatimiz bank tizimida erkin raqobat muhitini to'liq shakllanmaganligi.

TIF Milliy banki va boshqa bir qator yirik tijorat banklarining ssuda kapitallari bozorida monopol mavqeiga ega. 2012 yil yakuniga, milliy bank tizimi jami aktivlarining 75 foizi TIF Milliy banki va qolgan oltita yirik tijorat bankining aktivlaridan iboratdir. Agar respublikamizning yirik tijorat banklari aktivlarining 70 foizdan ortiq qismini kreditlar tashkil etishini hisobga olsak, u holda yirik tijorat banklarining ssuda kapitallari bozorida monopol mavqeiga ega ekanligi aniq bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida quyidagi takliflarni shakllantirdik:

1. Respublikamiz tijorat banklarining kapitalizatsiya darajasini oshirishni ta'minlash lozim.

2. Mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini, xususan, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini va undagi faoliyatini oshirish lozim.

3. Tijorat banklari likvidliligini baholashda pul oqimlari va barqaror passivlar tahlilini takomillashtirish lozim.

Pul oqimlari tahlilidagi asosiy kamchilik aktivlar va passivlarni amaldagi qoplash muddatlarini prognozlashning murakkabligi hisoblanadi.

4. Aholining qo'lidagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini bank muassasalariga keng ko'lamda jalb qilish yo'li bilan ularning inflatsion manba sifatidagi rolini pasaytirish maqsadida aholi omonatlarini indeksatsiya qilish tizimini joriy qilish lozim.

5. Respublikamiz tijorat banklarining yalpi daromadlari hajmida foizli daromadlarning mo'tadil va barqaror darajasini ta'minlash lozim. Foizli daromadlar salmog'ining mo'tadil darajasini aniqlashda Xalqaro bank amaliyotida qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni //– T.: "O'zbekiston", 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni //– T.: "O'zbekiston", 2003.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni, 2005 yil 15 iyun.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi qarori 2005 yil 15 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi PQ-56 sonli "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. Toshkent, 2005, 47-51 betlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori. 2010 yil 26-noyabr, PQ-1438-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagidasturiy ma'ruzasi hamda Vazirlar Mahkamasi majlisidagi 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan ma'ruzasi.
8. 2012-yilda pul-kredit siyosati "Monetar siyosatning 2012-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-



iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan dasturiy ma'ruzalari, 18-yanvar, 2013 yil.

9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005.
10. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: “O'zbekiston”, 2009-yil. 8-bet.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. 28.01.2010.
12. “Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida”gi Nizom, 08.10.2009, 2014-son.
13. “Banklarni tugatish tartibi to'g'risida”gi Nizom, 19.12.1999, 626-son.
14. “Banklarga vasiylik qilish to'g'risida”gi Nizom, 19.12.1998, 570-son.
15. “Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom (yangi tahriri), 25.07.2000, 949-son.
16. “Banklar va ularga daxldor shaxslar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar to'g'risida”gi Nizomi, 02.12.1998, 556-son.
17. “Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkachilikning eng yuqori darajasi to'g'risida”gi Nizom, 02.12.1998, 557-son. “Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida”gi Nizom, 02.12.1998.
18. “Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom, 2009, 1894-son
19. Norqobilov S., Dadaboyeva H., Jo'rayev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. T.: Iqtisod-Moliya, 2007.
20. Qaraliyev T., Sattarov O., Sayfiddinov I. Tijorat banklari faoliyati tahlili. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2013-y. -192

21. Банковское дело: Учебник / Под ред. О.И.Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 2003.
22. Банковское дело: Учебник / Под ред. Г.Н.Белоглазовой, Л.П.Кроливецкой – Москва.Санкт-Петербург. 2010. 400 с.
23. Банковское дело: Учебник / Под ред. О.И.Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2009. 352 с.
24. Г.Н.Белоглазовой, Л.П.Кроливецкая Банковское дело.Организация деятельности коммерческого банка: Учебник. Москва-Юрайт. 2010. 422 с.
- 25.Бабичева Ю.А. Банковское дело. – М.: Экономика, 2001, 398 с.
- 26.Кашапов Х. Сборник задач по курсу “ Банковское дело” / Х.Кашапов. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2005.
27. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. Управление и операции. – М.: ИПЦ «Вазар-Ферро», 2001. – Б. 263-267.
28. Abdullayev Yo., Qoraliyev T. va b. Bank ishi. O’quv qo’llanma – Т.: “Iqtisod-Moliya”,2010-yil. -532 bet.
29. Abdullayeva SH.Z. Bank ishi. Darslik/ - Т.: Toshkent,2003. -312 b.
30. Abdullayeva SH. Va boshqalar Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. O’quv qo’llanma. – Т.:”Iqtisod-Moliya” ,2006. – 118 b.
31. Обзор Базельского соглашения по капиталу.- Базель: БМР, 2003.
32. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. М.: 1997.
33. Хохлов Н.В. Управление риском: учеб. пособие для вузов. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2001.
34. Виноградова Т.Н. Банковские операции.—Ростов-на-Дону: Феникс, 2001.—384 с.
35. Деньги, кредит, банки / Лаврушин О.И., Ямпольский М.М., Савинский Ю.П., Панова Г.С.—М.: Финансы и статистика, 2003.—464 с.
36. Voboqulov T., Yusupov A. Tijorat banklari kapitali yetarliligini ta’minlash. // Bozor,pul va kredit. №10, 2004. 6-7 b.

37. Jo'rayev U. Xalqaro bank nazoratini takomillashtirishda Bazel qo'mitasining roli.// Bozor,pul va kredit. №10, 2003. 3-5 b.
38. Norqobilov S., Jo'rayev B. Bank tizimi islohotlari yo'lida.// Bozor,pul va kredit. №9. 19-22 b.
39. "Ahbor-Reyting" Reyting Agentligi. 2012-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda Respublikasi bank tizimi tahlili. №30 fevral, 2013-yil.
40. Bank axborotnomasi gazetasi, 2013-yil sonlari.

**Foydalanilgan internet saytlar ro'yxati:**

- <http://www.cbu.uz/>
- <http://www.worldbank.org/>
- <http://www.ahbor.uz/>
- <http://www.imf.org/>
- <http://www.ecb.int/>
- <http://www.standartandpoors.ru/>
- <http://www.fdic.gov/>
- <http://www.ebrd.org/>
- <http://www.banker.com/>
- <http://www.ifc.org/>
- <http://www.federalreserve.gov/>